

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

KREDIT-IQTISOD FAKULTETI

“TASDIQLAYMAN”

“Kredit-iqtisod”

fakulteti dekani

_____ Oblamurodov N.

“ ” _____ 2016 y.

“BANK HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

ABDINAZAROV FAZLIDDIN BAHODIR O‘G‘LI

**KREDIT TA’MINOTI, TURLARI VA ULARNI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

**5230700 -“Bank ishi”- ta’lim yo’nalishi bo’yicha
bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

**“Bank hisobi va audit” kafedrası
k.o`q. Boltayev T_____**

« » _____ 2016 y

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Bank hisobi va audit”

kafedrası mudiri

Umarov Z_____

“ ” _____ 2016 y.

.

Toshkent - 2016

Men, _____ ushbu BMini mustaqil bajardim, ko‘chirmachilik holati yo‘qligiga javob beraman. Ko‘chirmachilikka yo‘l qo‘ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug‘i bilan bekor qilinishi va “qoniqarsiz” baho qo‘yilishini bilaman.

Talabaning F.I.SH. va imzosi, sana

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“ ____ ” _____ 2016 yil

Toshkent shahri

“ _____ ” kafedrası

Bitiruv malakaviy ishi dastlabki himoyasi bo'yicha komissiyaning ____- sonli BAYONNOMASI

Eshitildi: _____

Qaror qilindi: _____

Komissiya a'zolari:

1. _____
2. _____
3. _____

**“Bitiruv malakaviy ishi himoyaga
tavsiya etiladi”**

Kafedra mudiri

i.f.n.,dots. _____ D.Saidov

“ ____ ” _____ 2016 yil.

	КИРИШ	3
I BOB	KREDITNING TA'MINOTI VA UNING NAZARIY, HUQUQIY ASOSLARI	6
1.1.	Kredit ta'minotining va uning iqtisodiy mohiyati	6
1.2.	Kredit faoliyati va uning ta'minlanishining huquqiy asoslari.	19
II BOB	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING AMALDAGI HOLATI	32
2.1.	Tijorat banklarida kredit ta'minotining amaldagi holati tahlili	32
2.2.	Tijorat banklarida kredit ta'minoti uchun qabul qilinadigan garov ta'minotini baholash tartibi	41
III BOB	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDITNING TA'MINLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	56
	XULOSA	
	FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	

“Bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash masalasi doimo e’tiborimiz markazida bo’lib kelmoqda va bu

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bozor munosabatlarining muhim bog'inlaridan biri bo'lgan bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish zahirida iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqaro bank tizimi talablariga mos keluvchi mahalliy banklar faoliyatini yanada takomillashtirish shu kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Jamiyat yaxshi taraqqiy qilgan bank tizimi va banklar faoliyatiga ega bo'lmasdan sog'lom taraqqiy qilishi mumkin emas.

2014-yili bank tizimini yanada mustahkamlash, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish va investitsiyaviy faolligini kengaytirish ta'minlandi. Bank tizimining jami kapitali 2014-yilga nisbatan 23,3 foiz ko'payib, 7 trillion 800 milliard so'mga yetdi. So'nggi 5-yilda mazkur ko'rsatkich 2,4 barobar o'sdi. Bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi qariyb 24 foizni tashkil qildi. Bu umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan 3-marta, bank likvidligi esa eng yuqori ko'rsatkichlardan 2-marta ko'pdir. ².

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, banklar faoliyatidagi eng asosiy muammolardan biri, berilgan ssudalarning qaytarilmasligidir. Ushbu muammoni qisman hal etish, ya'ni mijoz tomonidan kreditni qaytara olmaslik riskini kamaytirish yo'llaridan biri mijoz mulkining ma'lum qismini berilgan kredit uchun garov sifatida talab qilishdir. Bugungi kunda Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlari hajmining oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy kuzatib borish asosiy ishi deb talab qilinmoqda. Kredit

¹ I.A. Karimov– O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. –T.: O'zbekiston, 1995.-266b.

² O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

oluvchilarning to'lovga layoqatsizligi, hisob-kitob qilishga qurbi yetmayotgani moliya-bank tizimida jiddiy muammolar paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 yanvarda qabul qilingan «2011-2015 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida islohotlar ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatda ishchanlik muhitini shakllantirishning mezonlari va baholash tizimini aniqlash va amalga oshirishga doir choralar-tadbirlar Dasturi to'g'risida»gi PQ-1464-sonli qaroriga asosan, tijorat banklarida kichik biznes sub'ektlariga kreditlarni ajratishda garovga qo'yilgan mulkni rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni kreditning umumiy summasida aks ettirish amaliyoti joriy qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning iqtisodiy salohiyati, rivojlanish darajasini baholash, bank tizimini isloh qilishda tijorat banklarining kredit ta'minotini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan xulosa va takliflar berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Belgilangan vazifalarga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi. Ya'ni:

- kredit ta'minoti va uni amalga oshirish masalalarini yoritish;
- olinayotgan (tijorat banki tomonidan berilayotgan) kredit uchun ta'minot talab qilish tartibini o'rganish;
- hozirgi kunda respublikamiz sharoitida ta'minot turlari ichida muhim o'rinni egallayotgan garov, garov mexanizmi, garovning turlari, garov shartnomasi va uni rasmiylashtirish;
- garovga olinayotgan mulkni baholash tartibini o'rganish;
- kredit o'z vaqtida va to'liq qaytmagan taqdirda undiruvni garovga qo'yilgan mulkka qaratish, uni realizatsiya qilish masalalarini yoritish;
- ularning huquqiy asoslari, shuningdek, tijorat banklarida garov mulklari bilan ishlashdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti sifatida tijorat banklari tanlangan. Bitiruv malakaviy ishining

predmeti O'zbekiston respublikasi tijorat banklarining kreditlari uchun ta'minot talab qilish, rasmiylashtirish va takomillashtirish masalalari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining nazariy asosini kredit ta'minotiga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yo'riqnomalari, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olmlarning ilmiy tadqiqotlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, undagi takliflar O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kredit ta'minotini takomillashtirish tadbirlarini ishlab chiqishda hamda tijorat banklari samarali siyosatini ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, uchta asosiy qism, xulosa qismi va foydalanilgan adabiyotlar qismidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining I bobida kredit ta'minotining iqtisodiy va huquqiy asoslari yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining II bobida kredit ta'minotining amldagi holati, ta'minotga qo'yiladigan talablar va ularning tahlili o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishining III bobida tijorat banklari da kreditning ta'minlanishini takomillashtirish masalalari ko'rsatib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida bitiruv malakaviy ishini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan xulosa va ishlab chiqilgan amaliy takliflar o'zining qisqacha ifodasini topdi.

I BOB. KREDITNING TA'MINOTI VA UNING NAZARIY, HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Kredit ta'minoti va uning iqtisodiy mohiyati.

Kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud aniq uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo'lgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma'lum tamoyillar asosida olib boriladi. Bu tamoyillar kredit munosabatlari rivojlanishining birinchi bosqichida ko'zga tashlangan edi, keyinchalik esa ular umumdavlat va xalqaro kredit qonunchiligida yaqqol o'z aksini topdi. Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit bir necha tamoyillarga ega. Bular kreditning qaytib berishlilik, kreditning muddatlilik, kreditning ta'minlanganligi, maqsadlilik va to'lovlilik tamoyillaridir. Biz ko'rib o'tmoqchi bo'lgan tamoyili kreditning ta'minlanganligidir. Bu tamoyil yordamida kreditning iqtisodiyotni rivojlanishida qiymat va moddiy ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlik ta'minlanadi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo'jalik aylanishida ishtirok etuvchi bank mablag'larining har bir so'miga muayyan miqdorda moddiy boyliklar qarama-qarshi turishi kerak. Banklar tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga berilgan har qanday kreditlar to'liq tovar-moddiy boyliklari bilan yoki ma'lum xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Tarmoqlarga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka qaytib kelmasligiga asos bo'ladi. Bu o'z navbatida bankning likvidligiga va pul muomalasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar moddiy-boyliklari va xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishiga alohida e'tibor berilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatidagi eng asosiy muammolardan biri berilgan ssudalarning qaytarilmasligidir. Ushbu muammoni qisman hal etish, ya'ni mijoz tomonidan kreditni qaytara olmaslik riskini kamaytirish yo'llaridan biri mijoz mulkning ma'lum qismini berilgan kredit uchun garov sifatida talab qilishdir.

Bizga yaxshi ma'lumki, risk bank faoliyatining «hamroxi» hisoblanadi. Banklar aktivlarining juda katta qismini riskli aktivlar tashkil qilib, kredit esa bankning eng baland riskli (100 foiz riskli) aktiv operatsiyasi hisoblanadi. Kredit operatsiyasidagi eng katta risk uning ya'ni, berilgan kreditning qaytmaslik riskidir. Shu bois, kreditni ta'minlanganligi birinchidan, kreditning qaytmasligi bilan bog'liq xavfni (riskni) kamaytiradi yoki oldini oladi, ikkinchidan, kredit bilan

bog'liq yo'qotishlarni oldini oladi, uchinchi, qarz mablag'larining bankka qaytarilishini kafolatlaydi.

Kreditning ta'minlanganligi deganda, beriladigan kreditning qaytarilishi aniq moddiy qimmatliklar, pul hujjatlari yoki pul mablag'larini olishga bo'lgan huquq bilan kafolatlangan bo'lishi tushuniladi.

Tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning ta'minlanganligiga ko'ra ikki guruhga bo'lishimiz mumkin:

- ta'minlangan kreditlar;
- ta'minlanmagan kreditlar.

Kreditning ta'minlanganligi aniq garov ob'ektini tegishli tartibda rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Lekin ayrim hollarda masalan, yirik mijozlar kreditlanayotganda garov sifatida aniq shaklga ega bo'lgan garov ob'ekti emas, balki umumiy aktivlari olinishi mumkin. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar bank amaliyotida asosan ta'minlanmagan kreditlar berish keng yo'lga qo'yilgan. Ular blankli kreditlar deb ataladi.

Kreditlarni garov ta'minoti bilan ta'minlashning asosiy sabablari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- mamlakatlardagi iqtisodiy nobarqarorlik tufayli mijozlarning pul oqimi zaif va nobarqaror bo'ladi.

Bizga ma'lumki, kredit garov ob'ekti bilan ta'minlanmagan taqdirda, uni qaytarishning yagona manbai bo'lib mijozning pul oqimi hisoblanadi. Pul oqimi qanchalik zaif va nobarqaror bo'lsa, kreditning qaytmaslik ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi;

- mijozning kredit tarixini o'rganish amaliyoti shakllanmaganligi sababli kredit riski yuqori bo'ladi;

- tijorat banklarida mijozlarning moliyaviy holatini baholash tizimi rivojlanmagan bo'ladi.

Kreditning ta'minlanganligiga mazmunan quyidagicha qarash mumkin, kreditning ta'minlanganligiga iqtisodiy kategoriya sifatida yondashiladigan bo'lsa, u ma'lum bir moddiy boylik yoki xarajat uchun beriladi, shu bois doimo har bir

so'm kredit bir so'mlik tovar-moddiy qiymatliklar, xarajatlar, xizmatlar va boshqalar bilan ta'minlanishi lozim.

Kredit qaytarilishining iqtisodiy asosini mablag' aylanishi tashkil qiladi. Shu sababli, kreditning ta'minlanganlik tamoyili uning muddatlilik va qaytarishlilik tamoyilining bajarilishiga asos bo'ladi.

Banklar amaliyotida kreditning qaytarilishini ta'minlashning ikki guruh manbalari mavjud:

I Birlamchi manbalar.

Birlamchi manbalarga mahsulot realizatsiyasidan (yoki xizmat ko'rsatishdan) tushgan tushumlar kiradi. Ya'ni qarz olayotgan korxonaning barqaror faoliyat olib borishi, pul oqimi va taqdim etilgan biznes-reja birlamchi manbalarning asosi hisoblanadi. Chet ellik ko'pgina banklar kredit qaytarilishining «Oltin qoidasi» sifatida aynan birlamchi manbalarga ko'proq e'tibor qaratadilar. Bunday holatda kreditni qaytarishning real ta'minoti bu moliyaviy barqaror bo'lgan korxonalarning doimiy daromadlaridir. Bunday mijozlar likvid balansga, yuqori rentabellikka, yuqori darajada o'z kapitali bilan ta'minlanganlik darajasiga ega bo'ladi. Shunday ekan, rivojlangan mamlakatlarda kredit shartnomasini tuzishda bankir asos qilib oluvchi «Oltin qoida» - mijoz faoliyatining barqarorligi, daromadidir. Shu boiz, mijozni o'rganganda uning pul oqimi, soha va uning biznesi rivojlanish istiqbollari, mol yetkazib beruvchi va mol sotib oluvchilar bilan munosabatlariga e'tibor qaratish lozim. Agar bank mazkur mijozning pul oqimlari to'g'risida salbiy xulosaga ega bo'lsa, kredit bitimlari tuzilmaydi.


Kredit qaytarilishining real garovi sifatida tushumning e'tiborga olinishi faqatgina moliyaviy barqaror korxonalargagina taalluqlidir. Bunday kreditlar o'ta ishonchli, moliyaviy barqaror va bank bilan doimiy munosabatda bo'lgan mijozlargagina berilishi mumkin.

Biroq bu masalaning ikkinchi tarafi ham bor. Ya'ni, agar kredit so'rab bankka murojaat qilgan mijoz bankning yangi mijozi bo'lsa yoki yuqoridagi talablarga javob bermasa va yoki bizning bank tizimimizda qanday yo'l tutiladi,

ta'minotning qaysi manbalaridan foydalaniladi. Ushbu savol tug'ilganida ta'minotning ikkinchi yo'nalishini javob qilib ko'rsatishimiz mumkin.

II Ikkilamchi manbalar.

Bank korxonaning pul tushumi bo'yicha ma'lum darajadagi risklar yuzaga kelganda kreditni qaytarish bo'yicha ikkinchi yo'nalish sifatida boshqa ta'minot turlarini ham talab qilishi mumkin.



1-rasm Kredit ta'minotining ikkilamchi turlari³

Xususan, O'zbekiston sharoitida va bank amaliyotida quyidagilar ta'minotning ikkilamchi manbalari sifatida qabul qilinadi:

Mol-mulk garovi - bu kredit ta'minotining eng ko'p tarqalgan shakllaridan hisoblanadi. Mulk garovi garov shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi. To'lov majburiyati bajarilmaganda bank ushbu garovni sotish orqali kreditni qoplashi mumkin. Mol-mulk to'liq xo'jalik yuritish huquqi bilan biriktirib qo'yilgan korxonaning mol-mulkklari, shu mol-mulk egasining yoki u vakolat bergan organning roziligi bilan umuman korxonani, mulkiy majmualar sifatida uning tuzilmalari va bo'linmalarini, shuningdek alohida binolar va inshootlarni garovga olish mumkin.

³ Muallif tomonidan tuzildi

Bank uchun qulay bo'lgan mustahkam (ishonchli) garov bo'lib tovar va turli transport hujjatlari hisoblanadi, shu bilan bir qatorda qimmatbaho buyumlar va qimmatli qog'ozlar ham mustahkam garov sifatida qabul qilinishi mumkin. Birinchidan, ular garov beruvchi tomonidan kreditni ta'minlash maqsadida bankka beriladi, chunki ular hech qanday ortiqcha xarajatlarni talab etmaydi. Ikkinchidan, ular yuqori likvidligi, tez sotiluvchanligi bilan ajralib turadi. Bu esa bankka katta ahamiyat kasb etadi. Huquqiy garovi hozirda O'zbekiston uchun yangi bo'lgan va huquqiy jihatdan ta'minlanmagan shakl bo'lib hisoblanadi. Garov sifatida turli mulkka huquqiy jihatdan egalik qilish (mualliflik huquqlari, tovar belgilari, nou-xau, patent) hujjatlari bo'lishi mumkin. Bunda faqatgina garovga-qo'yilayotgan mulkka egalik qiluvchi shaxsgina garov beruvchi shaxs bo'lishi mumkin. Ijaraga olingan yoki egasi boshqa bo'lgan mulklar o'z egasining, ruxsatisiz garov ob'yekti bo'lishi mumkin emas.

Kafolat — kafolat beruvchi tomonidan qarz oluvchining majburiyatlari muddati kelganda to'lab berishi majburiyati tushuniladi.

Bank kafolati (xuddi kafillik kabi) kredit majburiyatlarini qoplash vositasi hisoblanadi va u ancha qulay vosita bo'lib, moliyaviy yo'qotishlardan qochish maqsadida kreditorlar tomonidan keng foydalaniladi.

Bank kafolati, kredit muassasalari yoki sug'urta tashkilotlari (garant) boshqa shaxs (prinsipal) iltimosi bo'yicha prinsipal kreditor (benefitsiar) ga pul mablag'lari summasini benefitsiar tomonidan yozma talabnoma taqdim etilgandan so'ng to'lash bo'yicha yozma majburiyatini beradi.

Bank kafolati deganda, uchinchi shaxs o'z vazifasini bajarmaganda, bank tomonidan ma'lum summani to'lab berish to'g'risidagi chaqirilmaydigan majburiyat tushuniladi. Kafolat asosiy qarz bo'yicha hisob-kitoblardan yoki kreditor va asosiy qarz oluvchi o'rtasidagi shartnomadan ajralgan holdagi mustaqil majburiyat hisoblanadi. Kafolat berish orqali bank birinchi talab bo'yicha, agar kafolat to'g'risidagi matnda keltirilgan shartlar bajarilgan bo'lsa, to'lash majburiyatini oladi.

Kafolat matnida kafolatning chaqirilmaydigan xarakterda ekanligi to'g'risida ko'rsatilishi kerak.

Chaqirilmaydigan kafolat – bu kafolat chaqirilishi, bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi (agar bank-garant bank-kreditor bilan oldindan kelishib olmagan bo'lsa) mumkin emas. Ammo qonun bo'yicha chaqiriladigan kafolatni qo'llash ham ta'qiqlanmagan. Agar bank kafolati to'g'risidagi shartnomada: “bank kafolati chaqiriladigan xarakterga ega” deb aniq belgilangan bo'lsa, bunda garant xohlagan paytida bergan kafolatini bekor qilishi mumkin. Agar kreditor chaqiriladigan kafolatga rozilik bildirsa, uning ishi bitdi degan gap. Chunki bunday kafolat bo'yicha mablag'ni kreditor hech qachon ololmaydi. Shuning uchun kreditorlar kafolat turiga juda e'tibor bilan qarashlari lozim.

Bank kafolati va kafillik asosiy majburiyat (kreditni qoplash bo'yicha) ni bajarishni ta'minlash usuli sifatida kup umumiy xarakteristikaga ega. Bank-kreditor va qarz oluvchidan tashqari ssuda operatsiyalarida bank garanti yoki kafil qatnashadi. Ammo bank kafolati va kafil o'rtasida aniq farqlar mavjud:

- Bank kafolati (kafillikdan farqli ravishda) asosiy majburiyatdan bog'liq emas.
- Majburiyat sub'ektlari bo'yicha. Qonun bo'yicha bank garantlari sifatida faqat kredit muassasalari va sug'urta tashkilotlari qatnashishi, kafil sifatida esa turli yuridik va jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin.
- Munosabatlarni o'rnatish shakli bo'yicha. Bank-garantlar bank-kreditorlari bilan bank kafolati shartnomasini tuzadilar yoki ularga kafolat xati yuboradilar. Kafillilik munosabatlari esa bank-kreditor va kafil o'rtasida kafillik shartnomasi tuzilishi natijasida o'rnatiladi.

Ko'pchilik (asosan kam tajribali garantlar) nimani boshdan kechirishlarini, qachon qarz oluvchi olgan kreditini qaytarishini yo xohlamasa yoki qaytara olmasa, taxmin qila olmaydilar. Tajribali britan iqtisodchisi Kristofer A. Blumfild kafolat berayotgan paytida ba'zi bir qoidalarga e'tibor berishni maslahat beradi. Buning uchun siz quyidagilarga ishonch hosil qilishingiz kerak:

- Kafolatlanayotgan shartnomaning mustahkamligiga ishonish;
- Berilgan kreditni qoplash bo'yicha masalalarni yaxshilab ko'rib chiqish;
- Bank-kreditor bilan kafolatni taqdim etish to'g'risida kelishish, bunda

kafolat summasi sizning aktivlaringiz qiymatidan yuqori bo'lmasligi kerak.

Bank kafolati berilganiga qarz oluvchi garantga mukofot to'laydi.

Barcha kreditor va garant o'rtasidagi munosabatlar bank kafolati shartnomasida aniqlanadi. Bu qoidaga rioya qilmaslik yoki yozma shaklda shartoma tuzmaslik shartnoma haqqoniy emasligidan dalolat beradi. Kafolat yoki ikki tomonlama shartnoma garant tomonidan kreditorga yuborilgan kafolat xati orqali rasmiylashtiriladi.

Kafolat xati – bank-kreditor va garant o'rtasida shartnomani tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Kafolat xati quyidagi mazmunda yozilishi lozim:

Garov beruvchining hisobvarag'ida puli bo'lishidan qat'iy nazar bank kafolat ostida ssudani o'z vaqtida to'lamaganda, sizdan to'lov talabnomasi kelib tushguncha vakillik hisobvarag'ingizga ushbu summani to'lab berish majburiyatini oladi.

Shu shart bajarilmasa bank garov oluvchi bankka har kuni kafolatlangan summaning 5%, lekin 100% dan oshmagan holda sizning korrespondentlik schyotingizga o'tkazish majburiyatini summasini biz to'lay olmasak bu summani bizning bosh bankimiz sizning vakillik hisobvarag'iga o'tkazadi.

Garov beruvchi banki xodimi kafolat xatida ko'rsatilgan imzo va muhrlarning haqiqiyligini tekshiradi, mijozning to'lovga layoqatliligini tahlil qiladi va ijobiy qaror qabul qilinganda bank rahbari va bosh hisobchisi bu hujjatlarni imzolaydilar va bank muhri qo'yiladi. Keyin rasmiylashtirilgan kafolat xati o'rnatilgan qoida bo'yicha ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun bosh bankga beriladi.

Kafolatning samaradorligini bir qator omillar bilan bog'liq:

- garantning moliyaviy holatini bank tomonidan real baholash;
- kredit berishdan oldin bank kafil bilan uchrashib, uni ushbu majburiyatni to'lashga tayyorligiga ishonch hosil qilish kerak;

- kafillar o'zlarining imkoniyatlari yetmaydigan summaga kafolat bermasligi lozim.

Kreditning ta'minlanganligi sifatida qabul qilinib, kredit majburiyatlari bajarilishi ta'minlashning keng tarqalgan usullaridan biri kafillik hisoblanadi. Fuqorolik kodeksining 292-moddasiga muvofiq kafillik shartnomasi bo'yicha kafil boshqa shaxs o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi. Kafillik yoki kafolat deganda, uchinchi shaxsning moliyaviy kafolati yoki kafilligi bilan beriladigan ssudalarni tushunish mumkin. Bunda kredit boshqa bir tashkilotning kafolati asosida beriladi. Kafolat beruvchi korxona yoki muassasa, agar qarz oluvchi kredit shartnomasida ko'rsatilgan shartlarni vaqtida bajarmasa, shu tufayli bank ko'rgan zararlarni qoplashga kafillik beradi va faoliyat davomida haqiqatda shunday ahvol ro'y bersa, o'z mablag'lari hisobidan zararni qoplab beradi. Moliyaviy kafillik beruvchi tomon sifatida huquqiy shaxslar, shuningdek turli darajadagi davlat hokimiyati organlari, jismoniy shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Kafil bank-kreditor o'rtasida kafillik bo'yicha munosabatlarni rasmiylashtirish uchun kafillik shartnomasi imzolanadi. Amaliyotda kafillik shartnomasini tuzishning uch holatlari uchraydi:

- bank-kreditor va qarz oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi imzolangandan keyin;
- kredit shartnomasi imzolanishidan oldin.

Bu tez-tez uchrab turadigan holat, bunda bank kreditni berishni rasmiylashtirishni faqatgina qarz oluvchi uchun kafillikni olgandan keyingina amalga oshiradi;

- birgalikda, ya'ni kredit shartnomasi bilan birga uch tomonlama kafillik shartnomasini imzolash. Bu hujjatni bank-kreditor, qarz oluvchi va kafil rasmiylashtiradi.

Kafillik shartnomasida qaysi majburiyatni bajarish uchun kafillik berilganligini aniqlashga imkon beruvchi shartlar ko'rsatilishi kerak. Kafillik to'liq (kreditning summasi va foizlarini o'z ichiga oluvchi) yoki qisman (masalan, faqat

foizlar bo'yicha) bo'lishi mumkin. Shartnomada kafilning o'z majburiyatlarini bajarish bo'yicha tartib va shart-sharoitlari ko'rsatilishi kerak. Kafilning javobgarligi qonun bilan belgilanadi.

Kafillik bilan ta'minlangan qarzdorning majburiyatlarini bajarish paytida kafil va qarzdor, agar qonun yoki kafillik shartnomasi bo'yicha kafilning subsidiar javobgarligi ko'zda tutilmagan bo'lsa, kreditor oldida birgalikda javobgar hisoblanadilar.

Birgalikdagi javobgarlikda kreditor kreditni to'liq yoki qisman qarz oluvchi va kafildan birgalikda qoplashni talab qilishi yoki ulardan biridan alohida holda talab qilishi mumkin. Kreditor hamkorlikdagi qarzdorlikning (qarz oluvchi yoki kafil) biridan to'liq qoniqmaganda, boshqa hamkor qarzdordan qoplanmagan qismini talab qilish huquqiga ega.

Kafil kreditor oldida qarz oluvchi kabi huddi shunday hajmda javobgar bo'ladi, ya'ni foizlarni to'lash, qarzni undirish bo'yicha sud xarajatlarini qoplash va kreditorning boshqa zararlarini qoplash bo'yicha javobgarlikni oladi. Ammo shartnomada kafilning cheklangan javobgarligi kafillik summasini aniqlash yoki kafil to'lovni kafolatga olgan zararining bir qismini aniqlash orqali o'rnatilishi mumkin.

Bank kafil bilan o'z munosabatlarini o'rnatishda, kafillik shartnomasida qarz oluvchi bilan o'zaro javobgarlik to'g'risida ko'rsatma berilmagan bo'lsa, kafil subsidiar javobgarlikni o'ziga oladi. Bunday holda kreditor birinchi navbatda, qarz oluvchiga qarzni undirish bo'yicha murojaat qiladi va kafilning javobgarligi faqatgina kredit shartnomasi bo'yicha qarz qoplanmaganda yuz beradi.

Agar asosiy qarzdor kreditorning majburiyatlarini to'liq bajarishni rad etsa yoki kreditor belgilangan muddatda taqdim etilgan talabnoma bo'yicha javob olmasa, bunda talabnoma subsidiar javobgarlikni o'ziga oluvchi shaxsga taqdim etilishi mumkin.

Subsidiar javobgarlikni olgan shaxs (kafil) kreditor tomonidan taqdim etilgan talabnomani bajarishdan oldin asosiy qarz oluvchini bu haqda ogohlantirishi lozim.

Agar subsidiar javobgarlikni olgan shaxsga da'vo qo'zg'atilgan bo'lsa, bunday holda u (kafil) asosiy qarz oluvchini bu ishda qatnashishga jalb etadi. Aks holda asosiy qarz oluvchi subsidiar javob beradigan kafilga qarshiligini ko'rsatish huquqiga ega.

Yana shuni belgilab o'tish kerakki, kafil va qarz oluvchi o'rtasida munosabat kafil va kreditor o'rtasidagi munosabatga ta'sir qilmaydi.

Ba'zi paytlarda, qarz oluvchi va kreditor o'rtasidagi munosabat tugaydi hamda ular o'rtasida tuzilgan shartnoma bekor qilinadi. Ammo shu shartnomaga muvofiq kafil bank-kreditor bilan kafillik shartnomasini tuzgan bo'ladi. Qarz oluvchi qarzini to'lamagan holda kreditor kafildan solidar majburiyatni bajarishni talab etadi. Amaliyotda ba'zan kafil qarz oluvchi bilan munosabati tugaganligi to'g'risida axborot bergan holda majburiyatni bajarishni rad etadi. Bu dalillar sud tomonidan qabul qilinmaydi, sud faqat kafillik kreditor va kafil o'rtasidagi shartnoma sifatida ko'rib chiqishi va uni bajarilish yuzasidan qaror qabul qilishi mumkin.

Majburiyatlarning kafil tomonidan bajarilishi uchun kreditor qarz oluvchiga bo'lgan talabini tasdiqlovchi hujjatlarni unga topshirishi va shu talabni ta'minlovchi huquqlarni o'tkazishi zarur. Bu qoidalar agar qonunchilikda, boshqa huquqiy aktlar yoki qarz oluvchi bilan kafillik shartnomasida ko'zda tutilmagan bo'lsa, ishlatiladi.

Qonunda ko'zda tutilganki, kafil tomonidan ta'minlangan majburiyatni bajargan qarz oluvchi bu haqda kafilga tezda xabar berishi lozim. Agarda bank kafilning mablag'ini asossiz oborotga olgan bo'lsa, kafil kreditordan asossiz olgan mablag'ini undirish bo'yicha talab qo'yishi yoki qarz oluvchiga bo'lgan regressiv talabini qo'yish huquqiga ega.

Kafillik to'xtalishining aniq hollari sifatida quyidagilarni belgilab o'tish mumkin:

- Kafil tomonidan ta'minlangan majburiyatni to'xtalishi bilan;

- Kafil uchun javobgarlikni oshiradigan yoki boshqa nomaqbul hollarga olib keladigan majburiyatlarni o'zgarishi bilan;

- Kafillik bu ta'minlangan majburiyat bo'yicha qarzni boshqa shaxsga o'tkazilishi bilan agar kafil kreditorga yangi qarz oluvchi javob berishga rozilik bermagan bo'lsa;

- Agar kreditor qarz oluvchi yoki kafil tomonidan taklif etilgan tegishli ijroni bajarishdan bosh tortsa;

- kafillik shartnomasida ko'rsatilgan muddat o'tishi bilan. Bunday muddat o'rnatilmagan bo'lsa, kafillik, agar kreditor kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish muddati boshlangandan kundan bir yil mobaynida kafilga nisbatan da'vo qo'zg'atmagan bo'lsa, tugatiladi;

- agar, kreditor kafillik shartnomasi tuzilgan kundan boshlab ikki yil mobaynida kafilga da'vo bildirmagan bo'lsa, bunda asosiy majburiyatni bajarilish muddati belgilanmagan yoki aniqlanmagan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, kreditni to'lashining kafili sifatida turli xildagi yuridik va jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin. Talablar va mulkiy huquqlarni o'tkazish (sessiya). Ba'zi mamlakatlar amaliyotida kredit ta'minoti sifatida talab va mulkiy huquqlarni o'tkazish (sessiya) qo'llaniladi. Sessiya – bu qarzdor hujjati bo'lib, unga asosan qarzdor o'zining talablari yoki mulkiy huquqlarini kredit ta'minoti sifatida bankka o'tkazadi.

Amaliyotda sessiyaning 2 ta turi ishlatiladi: ochiq va yashirin sessiya.

Ochiq sessiyada talabning o'tkazilganligi to'lovchiga ma'lum qilinadi. Yashirin sessiyada uchinchi shaxs ogohlantirilmaydi, majburiyatlarini qarz oluvchiga, Qarz oluvchi esa uni bankka to'lab beradi. Shuning uchun mijozlarga o'z obro'si va imidjini saqlab qolishda yashirin sessiya afzalroq hisoblanadi. Lekin banklar bu sessiyaning riski yuqoriligi uchun uncha qo'llashmaydilar.

Talablar va mulkiy huquqlarni o'tkazish ta'minoti bo'yicha kredit berilganda, risklilik darajasini hisobga olib, kredit ta'minotning 40 %igacha berilishi mumkin. Xalqaro amaliyotda kafolat va kafilliklar kredit ta'minotining shakllaridan

hisoblanadi. Bular ham garov kabi kreditor manfaatlarini yuridik va iqtisodiy tomondan himoya qiladi. Bularning garovdan farqli tomoni shuki, bunda javobgarlik qarzdorning emas, balki uchinchi shaxs - kafilning zimmasiga tushadi.

Bank kredit qaytarilishi ta'minoti sifatida bank foydasiga sug'urtalash uchun tegishli vakolati bor sug'urta kompaniyalarining kredit qaytarilmasligi xataridan sug'urtalash bo'yicha sug'urta polislarini qabul qilishi mumkin.

Kredit sug'urta polisi bilan ta'minlanayotganda faqat sug'urta to'lovi sug'urta kompaniyasining bank hisobvarag'iga o'tkazilib, bankka sug'urta vasiqasi taqdim etilganidan keyin kredit berilishi mumkin. Ajratilayotgan kredit hisobidan sug'urta to'lovlarini to'lash ta'qiqlanadi.


Sug'urta polisida agar qarz oluvchi kredit shartnomasida belgilangan muddatlarda kreditni va uning foizlari to'lamasa, sug'urta tashkiloti bu to'lovlarni o'zi qoplashi yuzasidan majburiyat olgani yozilgan bo'lishi kerak.

Sug'urta holati (muddati o'tgan qarzdorlik) yuzaga kelganda bank sug'urta kompaniyasiga u kreditni qaytarish va foizlarni to'lash borasidagi o'z majburiyatini bajarishi zarurligi to'g'risida xat yuboradi.

Bank filiali, sug'urta kompaniyasi va qarzdor o'rtasida aniq majburiyatlar ko'rsatilgan holda sug'urta shartnomalari tiziladi. SHartnomada bevosita nima sug'urta qilinayotganligi aniq ko'rsatilishi shart (kreditning bevosita summasi yoki u bo'yicha faqat foizlar yoki ikkalasi ham birgalikda). Sug'urta shartnomasidagi sug'urta tashkilotining majburiyatdan ozod etishga tegishli bandlariga, Bank filiali benefitsiar (naf ko'ruvchi) etib ko'rsatilganligiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Bank filiallariga kreditni qaytarish ta'minoti sifatida kreditni qaytarmaslik xatari bo'yicha "O'zagrosug'urta", "O'zbekinvest", "Kafolat", "Ishonch" va boshqa sug'urta kompaniyalarining Bank-benefitsiar foydasiga sug'urta polislarini Bosh Bank bilan kelishilgan holda qabul qilish tavsiya etiladi.

Sug'urta to'lovi oldindan taqdim etilayotgan sug'urta polisining butun amal qilish davriga o'tkazilishi shart. Qarz oluvchi tomonidan to'langan sug'urta to'lovlari to'g'risidagi to'lov hujjatlari nusxasi olinishi va kredit yig'ma jildiga tikib borilishi kerak.



2-rasm Ikkilamchi manbalarning likvidligi jihatidan turlari⁴

Yuqori darajada likvid hisoblanadigan qimmatli qog'ozlar ham garov predmeti bo'lishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

- davlat qimmatli qog'ozlari;
- aksiyalar va obligatsiyalar;
- boshqa emitentlarning depozit sertifikatlari.
- qimmatli qog'ozlar garovga qo'yilishi garov shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Bank qarz oluvchining hamda qimmatli qog'ozlar emitentining moliyaviy ahvolini monitoring qiladi va agar zarurat bo'lsa, qarz oluvchidan kredit qaytarilishini yoki garov summasi ko'paytirilishini talab qiladi.

Garovga qabul qilinayotgan qimmatli qog'ozlarning nominal summasi emitent ustav sarmoyasining 20% dan oshmasligi lozim. Emitentning ustav sarmoyasi kamayib, garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar ulushi ustav sarmoyasining 20% dan oshadigan hollarda Bank garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlarning bir qismini qarz oluvchiga qaytaradi hamda garovga qo'yilgan to'plam hajmini 20% ga yetkazadi va shu bilan birga qarz oluvchidan tegishli summada qo'shimcha garov kiritishni talab qiladi.

⁴ Muallif tomonidan tuzildi

Qimmatli qog'ozlar ularning real qiymati va bozor kursidan kelib chiqib, lekin kursga oid xatarlarni hisobga olgan holda baholanadi.

Qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati o'zgarib turishi hatari mavjudligi munosabati bilan, berilayotgan kredit summasi, agar bu qimmatli qog'ozlar Fond birjasining rasmiy listingiga kiritilgan bo'lsa, qimmatli qog'ozlar bozor qiymatining 80% dan oshmasligi, boshqa qimmatli qog'ozlar uchun esa ularning bozor qiymatiga teng yoki shundan oshmaydigan nominal qiymatining 60%dan ortiq bo'lmasligi kerak. Fond birjasi rasmiy listingiga kiritilmagan, bozor qiymati nominalidan past bo'lgan qimmatli qog'ozlar kredit ta'minoti sifatida qabul qilinishi mumkin emas.

Qimmatli qog'ozlarni garovga olib kredit berilayotganda garov shartnomasida garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan daromadlar ham bank foydasiga garovga qo'yilgani va qarz oluvchining muddatsiz garov hisobvarafiga kiritilishi hamda agar zarurat bo'lsa, qarz oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha qarzlarini to'lashga yo'naltirilishi ko'zda tutilmog'i kerak. Mazkur bandni ijro etish maqsadida qimmatli qog'ozlar emitentiga ushbu qimmatli qog'ozlar garovga qo'yilgani va ulardan olinadigan daromad qarz oluvchining tegishli garov hisobvarafiga yo'naltirilishi kerakligi to'g'risida bildiruvnoma yuboriladi.

1.2. Kredit faoliyati va uning ta'minlanishining huquqiy asoslari.

Kreditning qaytarilishini ta'minlash mexanizmi - bu bir tomondan iqtisodiy jarayonlar asosi, ikkinchi tomondan esa kreditor va qarz oluvchi o'rtasidagi huquqiy munosabatlar demakdir. Kredit qaytarilishining iqtisodiy asosini ishlab chiqarish jarayonlari ishtirokchilarining aylanma (oborot) fondlari hamda ularning realizatsiyasi, shuningdek, kredit amal qilishining huquqiy asoslari tashkil etadi.

Ya'ni, kredit va uning muomalada bo'lishi, kreditning ta'minoti, garov munosabatlari - bularning barchasi iqtisodiy mazmunga ega bo'lishi bilan bir qatorda ijtimoiy jarayonlar hamdir. Ular amalda bo'lishlari uchun ma'lum bir me'yoriy hujjatlar huquqiy asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

Respublikamiz bank amaliyotida berilayotgan kreditlar uchun ta'minot talab qilish hamda garov sifatida olish, uning turlari mexanizmi, kredit qaytmagan hollarda ta'minotni realizatsiya qilish tartiblarini belgilab beruvchi maxsus va umumiy huquqiy hujjatlar mavjud. Ulardan eng asosiylari quyidagilar:

1-jadval

Ta'minot bo'yicha me'yoriy-huquqiy asoslar⁵

№	Hujjat nomi	Raqami	Qabul qilingan sanasi
1	O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi		2008 yil
2	O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi qonuni		1996 yil 25 aprel
3	O'zbekiston Respublikasining qonuni «Garov to'g'risida»	614-I	2006 yil 25 avgust
4	O'zbekiston Respublikasining qonuni «Ipoteka to'g'risida»		2006 yil 28 iyun
5	O'zbekiston Respublikasining Prezidenti farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Markaziy bankning nizom va yo'riqnomalari		

Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan yuqorida keltirilgan hujjatlarga asoslangan holda garov munosabatlarini tartibga solish maqsadida qo'shimcha ravishda quyidagi me'yorlar ham ishlab chiqilgan:

- tijorat banklarida kreditlarning garov ta'minoti bilan ishlash tartibi;
- tijorat banklarining har yilga mo'ljallangan kredit siyosati va uning asosiy yo'nalishlari.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida kafillik va kafolat munosabatlariga quyidagicha fikrlar bildirilgan:

Kafillik shartnomasi bo'yicha kafil boshqa shaxs o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi.

Kafillik shartnomasi kelgusida vujudga keladigan majburiyatni ta'minlash uchun tuzilishi mumkin.

⁵ Muallif tomonidan tuzildi

Kafillik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi kerak. Yozma shaklga rioya qilmaslik kafillik shartnomasining haqiqiy bo'lmashligiga olib keladi.

Qarzdor kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kafil va qarzdor kreditor oldida solidar javob beradilar, basharti qonunda yoki kafillik shartnomasida kafilning subsidiar javobgar bo'lishi nazarda tutilgan bo'lmasa.

Basharti, kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kafil kreditor oldida qarzdor bilan baravar hajmda javob beradi, shu jumladan foizlar to'laydi, qarzni undirib olish bo'yicha sud chiqimlarini va qarzdor majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditor ko'rgan boshqa zararlarni to'laydi.

Agar kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, birgalashib kafil bo'lgan shaxslar kreditor oldida solidar javob beradilar.

Kafil kreditorning talabiga qarshi qardor bildirishi mumkin bo'lgan hamma etirozlarni qo'yishga haqli. Hatto qarzdor o'z e'tirozlaridan voz kechgan taqdirda ham kafil ushbu e'tirozlarga bo'lgan huquqini yo'qotmaydi.

Agar kafilga nisbatan da'vo qo'zg'atilgan bo'lsa, u qarzdorni ishda ishtirok etish uchun jalb qilishi shart. Aks holda qarzdor kreditorga qarshi o'zining barcha e'tirozlarini kafilning qarshi talabiga qarama-qarshi qo'yish huquqiga ega.

Majburiyatni bajargan kafilga kreditorning ushbu majburiyat bo'yicha huquqlari hamda garovga oluvchi sifatida kreditorga tegishli bo'lgan huquqlar kafil kreditorning talabini qancha hajmda qanoatlantirgan bo'lsa, shuncha hajmda o'tadi. Kafil kreditorga to'langan summaga foizlar to'lashni va qarzdor uchun javobgarlik munosabati bilan ko'rgan zararini to'lashni qarzdordan talab qilishga haqli.

Kafil majburiyatni bajarganidan keyin kreditor qarzdorga bo'lgan talabni tasdiqlovchi hujjatlarni kafilga topshirishi va bu talabni ta'minlaydigan huquqlarini berishi shart.

Kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajargan qarzdor bu haqda kafilni darhol xabardor qilishi shart. Aks holda o'z navbatida majburiyatni bajargan kafil

asossiz olinganni kreditordan undirib olishga yoki qarzorga regress talab qo'yishga haqli. Regress talab qo'yilgan taqdirda qarzdor asossiz olingannigina kreditordan undirib olishga haqli.

Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kafil qarzdorga ko'rsatgan xizmatlari uchun haq olish huquqiga ega.

Kafillik bilan ta'minlangan majburiyat bekor bo'lgach, shuningdek ushbu majburiyat kafilning roziligisiz javobgarlikning oshishiga yoki uning uchun boshqa noqulay oqibatlarga olib keladigan tarzda o'zgartirilgan taqdirda kafillik bekor bo'ladi.

Kafillik bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha qarz boshqa shaxsga o'tkazilganida, agar kafil yangi qarzdor uchun javobgar bo'lish haqida kreditorga rozilik bergan bo'lmasa, shuningdek kafil ta'minlangan majburiyatni bajarish muddati kelganida kreditor qarzdor yoki kafil taklif etgan tegishli ijroni qabul qilishdan bosh torsa, kafillik bekor bo'ladi.

Shartnomada ko'rsatilgan kafillik muddati o'tganidan keyin kafillik bekor bo'ladi. Agar bunday muddat belgilangan bo'lmasa, kreditor kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish muddati kelgan kundan boshlab bir yil davomida kafilga da'vo qo'zg'atmagan taqdirda kafillik bekor bo'ladi. Agar asosiy majburiyatni bajarish muddati ko'rsatilmagan va belgilanishi mumkin bo'lmagan yoki talab qilib olish payti bilan belgilangan bo'lsa, kreditor kafillik shartnomasi tuzilgan kundan boshlab bir yil mobaynida kafilga nisbatan da'vo qo'zg'atmagan taqdirda kafillik bekor bo'ladi.

Kafolat tushunchasi. Kafolatga binoan bank, boshqa kredit muassasasi yoki sug'urta tashkiloti (kafil) boshqa shaxs (prinsipal)ning iltimosiga ko'ra kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (bemnefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida prinsipalga yozma majburiyat beradi⁶.

Kafolat prinsipalning benefitsiar oldidagi o'z majburiyatini (asosiy majburiyatni) lozim darajada bajarishini ta'minlaydi.

⁶ O'zR Fuqarolik Kodeksi T.; 2008 yil

Kafolat berilgani uchun prinsipal kafilga haq to'laydi.

Kafilning benefitsiar oldidagi kafolatda nazarda tutilgan majburiyati ular o'rtasidagi munosabatlarda bajarilishini ta'minlash uchun shu kafolat berilgan asosiy majburiyatga, garchi kafolatda ushbu majburiyatga havola qilingan bo'lsa-da, bog'liq emas.

Agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, u kafil tomonidan chaqirib olinishi mumkin emas.

Kafolat bo'yicha benefitsiarga tegishli bo'lgan kafilga talab qo'yish huquqi, agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin emas.

Agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, u berilgan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Benefitsiarning kafolat bo'yicha pul summasini to'lash haqidagi talabi kafolatda ko'rsatilgan hujjatlarni ilova qilgan holda kafilga yozma ravishda taqdim etilishi kerak. Talabda yoki unga ilovada benefitsiar prinsipialning ta'minlash uchun kafolat berilgan asosiy majburiyatni buzishi nimadan iboratligini ko'rsatishi kerak.

Benefitsiarning talabi kafolatda belgilangan muddat tugaguncha kafilga taqdim etilishi kerak.

Kafil benefitsiarning talabini olgandan so'ng bu haqda darhol prinsipalni xabardor qilishi va unga talabning nusxasini barcha tegishli hujjatlar bilan topshirishi kerak.

Kafil benefitsiarning talabini unga ilova qilingan hujjatlar bilan birga kafolatda ko'rsatilgan muddatda ko'rib chiqishi, muddat ko'rsatilmaganda esa – mutanosib muddatda bu talab hamda unga ilova qilingan hujjatlar kafolat sharhlariga mos kelishi kelmasligini aniqlash uchun oqilona jonkuyarlik ko'rsatishi kerak.

Agar benefitsiarning talabi yoki unga ilova qilingan hujjatlar kafolat shartlariga mos kelmasa yohud kafilga kafolatda belgilab qo'yilgan muddat tamom

bo'lganidan keyin taqdim etilgan bo'lsa, kafil benefitsiarning talabini qondirishni rad etadi.

Kafil benefitsiarning talabini qondirishni rad etilganligi haqda uni darhol xabardor qilishi shart.

Agar benefitsiarning talabi qondirilgunga qadar kafolat bilan ta'minlangan asosiy majburiyat batamom yoki uning tegishli qismi bajarilganligi yoki boshqa asoslarga ko'ra bekor bo'lganligi yoki haqiqiy emas deb topilganligi kafilga ma'lum bo'lib qolsa, u bu haqda darhol benefitsiarga va prinsipalga xabar berishi shart.

Kafolatda nazarda tutilgan kafilning benefitsiar oldidagi majburiyati kafolat berilgan summani to'lash bilan cheklanadi.

Kafolat bo'yicha majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim farajada bajarilmaganligi uchun kafilning benefitsiar oldidagi javobgarligi, agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kafolat berildan summa bilan cheklanmaydi.

Kafilning kafolat bo'yicha benefitsiar oldidagi majburiyati quyidagi hollarda bekor bo'ladi:

- Kafolat berilgan summa benefitsiarga to'lanishi;
- Kafolatda belgilangan muddatning tamom bo'lishi;
- Benefitsiar kafolat bo'yicha o'z huquqlaridan voz kechishi va uni kafilga qaytarib berishi oqibatida;
- Benefitsiar kafilni uning majburiyatlaridan ozod qilishi haqida yozma ariza berish yo'li bilan kafolat bo'yicha o'z huquqlaridan voz kechishi oqibatida.

Kafil majburiyatining yuqoridagi uchta holarda bekor qilinishi unga kafolat qaytarib berilgan yoki qaytarib berilmaganligiga bog'liq bo'lmaydi.

Kafolat bekor bo'lganligidan xabar topgan kafil darhol bu haqda prinsipalni xabardor qilishi kerak.

Kafilning prinsipaldan kafolat bo'yicha benefitsiarga to'langan summalarini regress tartibida to'lashni talab qilish huquqi kafilning prinsipal bilan bajarish yuzasidan kafolat berilgan kelishuvida belgilab qo'yiladi.

Agar kafilning prinsipal bilan kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kafil benefitsiarga kafolat shartlariga nomuvofiq tarzda yoki kafilning benefitsiar oldidagi majburiyatni buzganligi uchun to'langan summalarni qoplashni prinsipaldan talab qilishga haqli.

Tijorat banklari tomonidan kreditlash faoliyatini amalga oshirishda garov mexanizmining huquqiy asosi bo'lib albatta "Garov to'g'risidagi" qonun hisoblanadi. Ushbu qonunda garov munosabatlariga quyidagicha ta'rif berilgan:

Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqini majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi. Garovga ko'ra qarzdor (garovga qo'yuvchi) garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo'yicha garovga qo'yuvchi tomonidan garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan boshqa kreditorlarga qaraganda imtiyozli suratda qanoatlantirilishiga haqli bo'ladi, qonunda belgilab qo'yilgan hollar bundan mustasno. Qonun bo'yicha haqiqiy bo'lgan har qanday majburiyatning: zayom, bank krediti, ijara, oldi-sotdi, yuklarni tashish va huquqning har qanday sub'ektlari (jismoniy va yuridik shaxslar, davlat) o'rtasidagi boshqa majburiyatlarning bajarilishi garov bilan ta'minlanishi mumkin. Majburiyat pul birliklarida (milliy valyutada yoki chet el valyutasida) ifodalangan bo'lishi lozim⁷.

Garov bilan bog'liq munosabatlar qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida garov bilan bog'liq munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi. Garov to'g'risidagi qonunning qoidalari, agar «Ipoteka to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, ipoteka bilan bog'liq munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining garov to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, u holda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

⁷ O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi qonuni 1-modda

Garovning vujudga kelishini nazarda tutuvchi qonunda qanday majburiyatga ko'ra va aynan qaysi mol-mulk garovda turgan deb e'tirof etilishi lozimligi ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Garov turlariga keladigan bo'lsak, ular quyidagi turlarga bo'linadi:

Garov zakalat, ipoteka, shuningdek huquq garovi tarzida amal qilishi mumkin.

Har qanday mol-mulk, shu jumladan ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo'lishi mumkin, muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talablar, xususan hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablar, alimentlar to'g'risidagi talablar hamda boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan boshqa talablar bundan mustasno. Garov to'g'risidagi shartnomada, qonun asosida vujudga keladigan garovga nisbatan esa qonunda garovga qo'yuvchi kelgusida qo'lga kiritadigan ashyolar va mulkiy huquqlar garovi nazarda tutilishi mumkin. Agar shartnomada yoki qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, mol-mulkka nisbatan garov huquqi mol-mulkning narsalarini va tarkibiy samarasini ham o'z ichiga oladi. Garovga qo'yilgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan samara, mahsulot va daromadlarga nisbatan garov huquqi shartnomada nazarda tutilgan hollarda tatbiq etiladi.

Bir nechta shaxsga birgalikda qarashli bo'lgan mol-mulk yoki huquqlar garovida esa birgalikdagi umumiy mulk bo'lgan mol-mulk faqat barcha mulkdorlarning yozma roziligi bilan garovga berilishi mumkin. Bir nechta shaxsga birgalikda qarashli bo'lgan huquq uning barcha egalari roziligi bilangina garovga qo'yilishi mumkin. Mulkdorning umumiy ulushli mulkdagi o'z ulushini garovga qo'yishi qolgan mulkdorlarning rozilik berishini talab qilmaydi.

Mulk huquqining keyinchalik boshqa mulkdorga o'tishi to'liq xo'jalik tasarrufi yoki bevosita boshqaruvi ostidagi mol-mulk garoviga daxl qilmaydi. Ijarachi ijara shartnomasida nazarda tutilgan hollardagina ijaraga beruvchining rozilgisiz o'zining ijaraga oid huquqlarini garovga o'tkazishga haqlidir. Boshqa davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek fuqaroligi

bo'lmagan shaxslar, qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga oid munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari bilan ayni bir xil huquqlardan foydalanadilar hamda ayni bir xil majburiyatlarga ega bo'ladilar.

Garov huquqi garov to'g'risida shartnoma tuzilgan paytdan yohud, bosharti shartnoma notarial tasdiqlanishi shart bo'lsa notarial tasdiqlangan paytdan, shartnoma ro'yxatdan o'tkazilishi shart bo'lganida esa u ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Mol-mulk qisqa muddatli (olti oyga qadar) kreditga sotilgan taqdirda, garov huquqi sotib oluvchi va mol-mulk savdosining ana shu turini amalga oshirish o'z faoliyati doirasiga kiradigan sotuvchi o'rtasida shartnoma tuzilgan paytdan vujudga keladi.

Garov to'g'risidagi shartnomada tomonlarning nomi, joylashgan manzili (yashash joyi), garov turi, garov narsasi va uning bahosi, mohiyati, miqdori va garov bilan ta'minlanadigan majburiyatning bajarilish muddati, garovga qo'yilgan mol-mulkning ro'yxati, shuningdek tomonlarning kelishuviga erishilgan boshqa ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi zarur. Unda garovga qo'yilgan mol-mulk tomonlarning qaysi birida ekanligi ham ko'rsatilishi shart.

Garov narsasini baholash garovga qo'yuvchi bilan garovga oluvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra yoki baholash faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq garov narsasini baholashdan o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Garov to'g'risidagi shartnoma albatta yozma shaklda tuzilishi kerak.

Ipoteka to'g'risidagi shartnoma, shuningdek notarial tasdiqlanishi kerak bo'lgan shartnomaga muvofiq olinadigan majburiyatlarni ta'minlash yuzasidan ko'char mol-mulkni yoki mol-mulkka bo'lgan huquqlarni garovga qo'yish to'g'risidagi shartnoma notarial tasdiqlanishi shart.

Ipoteka to'g'risidagi shartnoma tegishli mol-mulk haqida tuziladigan bitimlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Garov narsasini sug'urta qilish albatta muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga qo'yuvchi yoki garovga oluvchi qo'yilgan mol-mulk kimdaligiga qarab:

- garovga qo'yilgan mol-mulk yo'qolishi yoki shikastlanishi xavfidan uning to'la qiymati bo'yicha, bordi-yu mol-mulkning to'la qiymati garov bilan ta'minlangan talabning miqdoridan oshib ketsa, talab miqdoridan kam bo'lmagan summaga garovga qo'yuvchi hisobidan sug'urtalashi;

- garovga qo'yilgan mol-mulkning asralishini ta'minlash uchun, shu jumladan uni uchinchi shaxslarning tajovvuzlari va talablaridan himoya qilish uchun zarur choralarni ko'rishi;

- garovga qo'yilgan mol-mulk yo'qolishi yoki uning shikastlanishi xavfi paydo bo'lganligi to'g'risida ikkinchi tomonni darhol ogohlantirishi shart.

Shartnoma yoki qonun hujjatlari bilan garovga qo'yuvchi zimmasiga davlat boshqaruv organlari tomonidan uning xo'jalik faoliyatini to'xtatib qo'yuvchi yohud unga xalaqit beruvchi yoki unga salbiy ta'sir etuvchi xatti-harakatlar sodir etilishi va hujjatlar qabul qilinishi (mol-mulkni musodara, rekvizitsiya qilish), shuningdek tugatilishi yoki xo'jalik sub'ekti to'lov qobiliyatini yo'qotgan deb e'tirof etilishi hollarida sug'urta qilish majburiyati yuklanishi mumkin.

Garovga qo'yilgan mol-mulk sug'urta qilinganda garov bilan ta'minlangan majburiyat summasidan ortiq bo'lmagan summada sug'urta tovonini oluvchi - garovga oluvchi hisoblanadi. Garovga qo'yuvchi sug'urta tovonining qolgan summasini oladi. Sug'urta hollari sodir bo'lganda garovga oluvchi o'z talablari sug'urta tovonini summasidan imtiyozli qondirilishi huquqiga ega bo'ladi.

Garov narsasini almashtirishga, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga oluvchining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Agar garov narsasi nobud bo'lgan yoki shikastlangan yohud unga bo'lgan mulk huquqi yo xo'jalik yuritish huquqi qonunda belgilangan asoslarga ko'ra bekor qilingan bo'lsa, garovga qo'yuvchi oqilona muddatda (nizo chiqqan taqdirda esa sud belgilagan muddatda) garov narsasini tiklashga yoki shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, uni teng qiymatli boshqa mol-mulk bilan almashtirishga haqli.

Garovga oluvchi nobud bo'lgan garov narsasi uchun uning haqiqiy qiymati miqdorida, garov narsasi shikastlanganligi uchun esa garov narsasi garovga oluvchiga topshirilayotganda baholangan summaga qarab qiymat qancha summaga kamaygan bo'lsa, shuncha summa miqdorida javob beradi.

Agar garov narsasi shikastlanish natijasida belgilangan maqsad bo'yicha foydalanib bo'lmaydigan darajada o'zgargan bo'lsa, garovga qo'yuvchi undan voz kechishga hamda uning nobud bo'lganligi uchun tovon to'lanishini talab qilishga haqli, u bilan garovga oluvchi o'rtasida nobud bo'lgan yoki shikastlangan mol-mulkni tiklash yoki almashtirish to'g'risida yozma ravishda bitim tuzilgan hamda garovga oluvchi bu bitimning shartlarini lozim darajada bajarayotgan hollar bundan mustasno.

Shartnomada garovga oluvchining garov narsasi nobud bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida garovga qo'yuvchiga yetkazilgan boshqa zararni ham to'lash majburiyati nazarda tutilishi mumkin.

Garovda turgan mol-mulkni garovga qo'yuvchi tomonidan boshqa shaxsga (garovga oluvchiga) boshqa talablarni bajarish uchun berish navbatdagi garov hisoblanadi.

Agar garov to'g'risidagi oldingi shartnomalarda navbatdagi garov taqiqlab qo'yilgan bo'lmasa, navbatdagi garovga yo'l qo'yiladi. Navbatdagi garovga oluvchining talabi bu mol-mulkning qiymatidan avvalgi garovga oluvchilarning talablaridan keyin qanoatlantiriladi. Garovga qo'yuvchi garovga oluvchilarning har biriga mazkur mol-mulkning barcha mavjud garovlari to'g'risida, shuningdek bu garovlar bilan ta'minlangan majburiyatlarning miqdori haqida ma'lum qilishi shart va ushbu majburiyatni bajarmaslik tufayli garovga oluvchilarga yetkazilgan zarar uchun javob beradi.

Garovga oluvchi talabidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish yo'li bilan kreditorning huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish haqidagi qoidalarga rioya qilgan holda garov to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'z huquqlarini qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shaxsga o'tkazishga haqli.

Garovga oluvchining garov to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'z huquqlaridan boshqa shaxs foydasiga voz kechishi, agar garov bilan ta'minlangan asosiy majburiyat bo'yicha qarzdordan talab qilish huquqidan ham o'sha shaxs foydasiga voz kechilgan bo'lsa, haqiqiy bo'ladi.

Garov bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha qarz boshqa shaxsga o'tkazilishi bilan, agar garovga qo'yuvchi kreditorga yangi qarzdor uchun qonun hujjatlariga muvofiq javob berishga rozilik bergan bo'lmasa, garov bekor bo'ladi.

Agar shartnomada yoki qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga oluvchi quyidagilarga haqli:

- garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda undiruvni garov narsasiga qaratish;

- garov to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'z huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish;

- garovga qo'yilgan mol-mulk yo'qolganligi va shikastlanganligi uchun u kimning foydasiga sug'urta qilinganidan qat'iy nazar, agar yo'qolish yoki shikastlanish garovga oluvchi javob beradigan sabablarga ko'ra sodir bo'lmagan bo'lsa, o'sha asoslarga sug'urta tovonidan qanoatlanish olish;

- davlat boshqaruv organlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining garovga oluvchining huquqlari buzilgan hujjatlarini haqiqiy emas deb e'tirof etish xususida sudda da'vo qo'zg'atish va hujjatlar chiqarish natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini tegishli organlardan talab qilish;

- garovga qo'yuvchining garov narsasiga mulk huquqi ushbu qonunga muvofiq tugatilgan taqdirda, o'z talabini garovga qo'yuvchiga berilishi lozim bo'lgan summadan imtiyozli qanoatlantirish;

- qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatning bir qismini bajargan taqdirda, garovdagi barcha mol-mulk uchun huquqini saqlab qolish;

Zakalat qo'yilganda, garovga oluvchi ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan huquqlardan tashqari quyidagilarga haqli:

- o'ziga berilgan garov narsasidan shartnomada nazarda tutilgan hollardagina, garovga qo'yuvchiga foydalanishga doir muntazam hisobot taqdim etgan holda foydalanish;

- ashyoni majburiyat to'liq bajarilgunga qadar ushlab turish;

- garovdagi mol-mulkni o'zganing noqonuniy egaligidan, shu jumladan garovga qo'yuvchining egaligidan talab qilib olish.

Garovdagi mol-mulkni garovga qo'yuvchida qoldirgan holdagi garovda, ipotekada, ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan huquqlardan tashqari, garovga oluvchi quyidagilarga haqli:

- garov narsasining hujjatlar bo'yicha amalda mavjudligini, miqdori, holati va saqlanish sharoitini tekshirish;

- qo'yilgan mol-mulkka nisbatan qilinayotgan, uning yo'qotilishi yoki shikastlanishi xavfini tug'dirayotgan tajovvuzlar to'xtatilishini, ular kim tomonidan sodir etilayotganidan qat'i nazar, talab qilish;

- garovga qo'yuvchi garov narsasini sug'urta qilish bo'yicha majburiyatini buzgan taqdirda, garov narsasini o'z hisobidan, ammo garovga qo'yuvchining manfaatlarini ko'zlab, sug'urta xarajatlarini undan undirib olgan holda sug'urta qilish.

Muomaladagi tovarlar garovida garovga qo'yuvchi garov shartlarini buzgan taqdirda, garovga oluvchi bu shart bo'zish tuzatilgunga qadar garovdagi tovarlarga o'z belgilari va muhrlarini bosish orqali muomaladagi tovarlar bilan operatsiyalarni to'xtatib turishga haqli.

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING AMALDAGI HOLATI

2.1. Tijorat banklarida ta'minotning amaldagi holati va tahlili.

Bugungi kunda tijorat banklarining oldiga qo'yilgan eng asosiy vazifa respublikamiz taraqqiyotini belgilovchi real sektorni yetarlicha moliyaviy resurslar va xizmatlar bilan ta'minlashdir. Shu sababli, bank tizimida kreditlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Tahlil jarayonida shular ma'lum bo'ldiki, banklar tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Ushbu kreditlar asosan ustuvor loyihalarni moliyalashtirishga hamda kichik va o'rta biznesni qo'llab quvvatlashga yo'naltirilmoqda.

Shu jumladan, tijorat banklari kredit qo'yilmalarining umumiy hajmi 2015-yilda 27,3 foizga oshib, 2016-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 42,7 trln. so'mni tashkil etdi.




3-rasm Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari dinamikasi⁸

Iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlarning 86,7 foizi ichki manbalar hissasiga to'g'ri keladi.

2015 yilda iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab quvvatlash uchun yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlar hajmi 2014 yildagiga nisbatan 27,7 foizga oshib, ularning tijorat banklari jami kredit portfelidagi salmog'i 79.8 foizni tashkil etdi.

Xususan, ATB "O'zsanoatqurilishbank" da 2012-2015 yilda kredit portfeli hajmio'zgarishi quyidagicha:

⁸ O'zR Markaziy bankining 2015 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2016 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari




4-rasm 2012-2015 yillarda kredit portfeli hajmi o'zgarishi⁹

Bundan ko'rishimiz mumkinki, bankning kredit portfeli 2013 yil 1-yanvar holatiga ko'ra 2312 mlrd. so'mni tashkil etgan. Xuddi shunga o'xshab 2014 yil 1-yanvar holatiga ko'ra 3517mlrd. so'mni, 2015 yil 1-yanvar holatiga ko'ra 4944 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2016 yil 1-yanvar holatiga ko'ra 6151 mlrd. somni tashkil etdi. Bunga sabab sifatida tijorat bankining berayotgan kreditlari miqdori oshganligini aytishimiz mumkin.

Hisobot davri yakuni bo'yicha bank kredit portfelining hajmi tubdan o'zgarganligini alohida qayd etish lozim. 2015 yilda bank tomonidan ajratilgan milliy valyutadagi kreditlar, factoring va lizing xizmatlari iqtisodiyotning real tarmog'ini qo'llab quvvatlashda o'zining munosib o'rniga ega bo'ldi.

Bu kreditlarning tarmoqlar bo'yicha tasniflanishini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin:

⁹ ATB "O'zsanoatqurilishbank" ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



5-rasm 2015 yil yanvar holatiga ko'ra kredit portfelining tarmoqlar bo'yicha tarkibi¹⁰:

Hisobot yilida bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlanishi – iqtisodiyotning real tarmog'i korxonalarini, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini uzluksiz moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkonini berdi.

Kredit qo'yilmalari asosan iqtisodiyotning real tarmog'iga yo'naltirildi. Xususan 5197 mlrd. so'm (84.5%) kredit qo'yilmasi sanoat tarmog'iga, 353 mlrd. so'm (5.7%) – transport va aloqa sohasiga, 244 mlrd. so'm (4%) – savdoga, 90 mlrd. so'm (1.5%) – qurilish tarmog'iga, 38 mlrd. so'm (0.6%) – qishloq xo'jaligiga, 23 mlrd. so'm (0.37%) – moddiy-texnika ta'minlash sohasiga, 3 mlrd. so'm (0.05%) – maishiy xizmatlar ko'rsatish va 203 mlrd. so'm (3.3%) – boshqa tarmoqlar hissasiga to'g'ri keladi.

2015 yil davomida milliy valyutada jami 1963.2 mlrd. so'mlik, xususan 1380.9 mlrd. so'mlik (70%) qisqa muddatli va 582.3 mlrd. so'mlik (30%) uzoq muddatli kreditlar berildi.

¹⁰ Mualliof tomonidan tuzildi

O'zsanoatqurilishbank eng avvalo uzoq muddatli kreditlarni taqdim etish orqali mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini moliyalashtirishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Kredit qo'yilmalari tarkibida uzoq muddatli kreditlar hajmi 88% yoki 5414.9 mlrd. so'mni, shu jumladan lizing xizmatlari – 21.3 mlrd. so'mni, qisqa muddatli kreditlar ulushi 12% yoki 736.3 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Kreditlash xizmati ko'rsatilishining asosiy tamoyili va shartlaridan biri ta'minlanganlikdir. Kreditlash xizmati bo'yicha qarzdorliklarni qaytarishning asosiy birlamchi manbayi bu - mahsulot sotishdan, ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish (kreditlanayotgan operatsiya) dan tushgan tushum (mijozning pul oqimi) hisoblanadi.

Kreditlash xizmatlari ko'rsatilishida ular bo'yicha qaytmaslik xatari (tavvakalchilik)ni kamaytirish maqsadida, qo'shimcha (ikkilamchi) ta'minot tarzidagi qaytarish manbasi mavjud bo'lishi lozim (ishonchli kreditlardan tashqari).

Kreditlash xizmati ko'rsatilishi to'g'risidagi qaror birinchi navbatda ikkilamchi ta'minotning ya'ni garov, kafolat yoki kafillikning jozibadorligiga asoslanmasligi kerak. Agar kreditlanayotgan bitim yuqori xatar, qarzdorning ishonchsizligi bilan bog'liq bo'lsa, faqatgina yaxshi ta'minot mavjudligi asosida kreditlash xizmati ko'rsatilishi tavsiya etilmaydi.

Bank tizimida 100% uchinchi shaxs kafilligi va sug'urta polisi bilan kredit berish ta'qiqlanadi. (Istisno tariqasida "O'zbekneftgaz" MHK, "O'zbekenergo" DAK, "O'zkimyosanoat" DAK, "Toshshahartransxizmat" uyushmasi va "O'zbekiston temir yo'llari" DATKga qarashli korxonalarga Kreditlash xizmatlarni kafillik ostida ko'rsatish mumkin. Shuningdek, yosh oilalarga, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga, kasb hunar kollejlari bitiruvchilariga o'z tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun eng kam oylik ish haqining 200 baravarigacha bo'lgan miqdordagi mikrokreditlarni 100% uchinchi shaxslar kafilligi ostida berish mumkin.

Shuningdek, hukumat topshiriqlarida ko'rsatilgan va boshqa alohida hollarda Bosh bank Kredit qo'mitasining qaroriga asosan ham 100% uchinchi shaxs kafilligi bilan Kreditlash xizmatini amalga oshirish mumkin).

Kreditlar asosan kredit summasini 80%idan kam bo'lmagan miqdorda likvid mol-mulk garovi ostida ajratiladi.

Quyidagilar ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin:

- mol-mulk, pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar garovi;
- to'lov layoqati va moliyaviy ishonchliligi tekshirilgan, moliyaviy barqaror va doimiy pul mablag'lari oqimi mavjud, yuqori kredit layoqatiga ega uchinchi shaxslarning kafilliklari;
- boshqa tijorat banklari, kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari kafolatlari;
- o'z faoliyatini qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiruvchi, tegishli litsenziyaga ega bo'lgan nufuzli sug'urta kompaniyalarining kreditni qaytarilmaslik xatarining sug'urtalanganligi to'g'risidagi sug'urta polislari;
- O'zbekiston Respublikasi hukumati (Moliya vazirligi) kafolati;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa ta'minot turlari.

Kreditlash xizmati bo'yicha ta'minot asosiy qarz va hisoblangan foizlar bo'yicha barcha summani qoplashga yetarli bo'lishi, ya'ni ta'minotning miqdori kredit summasidan kamida 125 foizni tashkil etishi lozim.

Kredit ta'minoti qabul qilinishidan va tegishli shartnomalar rasmiylashtirilishidan avval, albatta, garovga qo'yuvchi, kafolat beruvchi, kafil korxonalar va ularning boshqaruv organlarida mulkni garovga qo'yish, kafolat va kafilliklar berish bu haqda tegishli shartnomalarni imzolashga vakolati mavjudligi amaldagi qonunchilik va ularning ta'sis hujjatlari asosida tekshirilishi lozim.

Bunda mulkni garovga qo'yish, kafolat va kafilliklar berish yuzasidan korxonalarning tegishli boshqaruv organlari roziligi olinishiga katta e'tibor berilishi kerak.

Ta'minot rasmiylashtirishga doir barcha harakatlar (shartnoma tuzish, garovga qo'yilayotgan mulkni sug'urtalash, notarial tasdiqlash, ipoteka va boshqa shartnomalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va boshqa ishlar) Bank tomonidan kredit mablag'lari berilguncha amalga oshirishi kerak. Ayrim hollarda, ya'ni kredit (kafolat) hisobiga sotib olinayotgan, qurilayotgan ob'ektlarning garovi tegishli shartnoma tuzilgandan va kredit (kafolat) berilgandan keyin rasmiylashtirilishi mumkin. Bunda aniq muddat ko'rsatgan holda sotib olinayotgan, qurilayotgan ob'ektlar garovi rasmiylashtirilishi haqidagi shartlarni kredit (lizing, kafolat berish) shartnomasida belgilab qo'yish kerak.

Quyidagilar garov narsasi bo'la olmaydi (garovga olinmaydi):

- muomaladan chiqarilgan mol-mulklar, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talablar, xususan hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablar, alimentlar to'g'risidagi talablar hamda boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan boshqa talablar;

- tarixiy, madaniy yoki o'zgacha qimmatbaholigi tufayli yoxud davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan garov qo'llanilishi mumkin bo'lmagan va ro'yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladigan ob'ektlar;

- "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi qonunda ko'rsatilgan davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirilishi mumkin bo'lmagan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan ob'ektlar.

Bank tizimida quyidagi mulklarni garovga olish tavsiya qilinmaydi:

- egalik huquqi lozim darajada rasmiylashtirilmagan bino va inshootlar;
- korxona va tashkilotlar ichida joylashgan va alohida chiqish yo'lga ega bo'lmagan bino hamda inshootlar;

- qurilish norma va qoidalarga rioya qilinmasdan qurilgan binolar jumladan, qisman yoki to'la xom-g'isht, paxsa, sinch kabi qurilish mahsulotlari ishlatib qurilgan bino va inshootlar;

- ta'mirlash va saqlash xarajatlari katta bo'lgan yoki 60 foizdan ortiq eskirish qiymatiga ega yoki avariya holatidagi bino va inshootlar;

- kommunikatsiya va infrastruktura tizimi rivojlanmagan hududlarida joylashgan binolar va inshootlar;

- tegishli kadasrtr hujjatlari mavjud bo'lmagan, qurilishi yakunlanmagan bino va inshootlar (qonunchilik bilan ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno);

- kelgusida buzilishi yoki qayta qurilishi kutilayotgan bino va inshootlar;

- juda tor doirada foydalanishga mo'ljallangan mulklar (mini-sex, uskunalar, stanoklar va boshqalar);

- jismoniy va ma'naviy eskirgan, to'liq yoki qisman nosoz holatdagi mashina, jihoz va uskunalar;

- o'g'irlash, o'zlashtirish, talon-taroj qilish yoki boshqa shaklda begonalashtirilishi oqibatida sifat xususiyatlariga ko'ra tanib olish qiyin bo'lgan mulklar (qurilish materiallari, keng iste'mol mollari, qismlarga bo'linadigan boshqa mulklar);

- tez buziladigan tovarlar va oziq-ovqat mahsulotlari, talab kam bo'lgan tovar-moddiy boyliklar va ko'p miqdordagi bir xil turdagi tovarlar;

- ma'lum muddat saqlashga mo'ljallangan tovarlar va ko'rsatilgan muddatda iste'mol xususiyatlari yomonlashadigan tovarlar;

- yagona yer uchastkasida joylashgan va bir necha mulkdorlarga tegishli ob'ektlar;

- suv va havo, temir yo'l transporti vositalari.

Garovga taqdim etilayotgan mol-mulk quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- boshqa garovdan va majburiyatlardan ozod bo'lishi;

- yuqori darajada likvid bo'lishi, ya'ni tezda sotish orqali pul mablag'iga aylantirish imkoniyati mavjudligi;

- garovga qo'yuvchining garov narsasini tasarruf etish va garovga qo'yish to'liq huquqi va vakolatining mavjudligi;

- kredit (lizing, kafolat) va hisoblangan foizlarni to'liq qoplashi;

- uzoq muddat saqlash xususiyati mavjudligi (mulkning saqlanish muddati kredit muddatidan kam bo'lmasligi kerak);

- bank xodimlari tomonidan nazorat qilib borilishi imkoniyati mavjudligi.

Garovga taqdim etilayotgan ko'char va ko'chmas mulklar quyidagi shartlar asosida garovga qabul qilinishi mumkin:

a) ko'char mulk garovi:

Avtotransport vositalari va harakatlanadigan mulk garovi taqdim etilayotganda - garov qiymati (yengil va yuk avtotransport vositalari, qishloq xo'jalik texnikalari va boshqalar.) kredit summasidan kamida 125 foizni tashkil etishi lozim. Avtotransport vositalarini garovga olishda ularning yillik eskirish darajasini hisobga olish zarur. Garovga olingan avtotransport vositalari boshqa sug'urta holatlari bilan birga "Yo'l transport hodisasi" holatidan ham majburiy tartibda sug'urtalanishi kerak. Bunda Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 7 martdagi 38-sonli qaroriga muvofiq avtomobil vositalarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 6 yanvardagi 8-sonli qaroriga muvofiq traktorlar, o'ziyurar shassi va traktor tirkamlarini ro'yxatdan o'tkazish, belgilangan tartibda yagona nomer belgilari va texpasportlar berish "Davtexnazorat" ning tuman va shahar inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, bu turdagi mulklarni garovga olish shartnomalari ushbu davlat organlaridan davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart. Zarur hollarda, garov shartnomasi tuzishdan oldin garov narsasiga oid ma'lumotlarni qayd qilingan davlat organlaridan yozma shaklda olish mumkin.

Uskunalar garovi taqdim etilayotganda uskunaning har bir birligiga texnik pasportning asl nusxasi mavjud bo'lishi lozim.

Dastgoh, asbob-uskuna va qurilma garovi taqdim etilayotganda ularning holati, ishlatilish muddati va eskirish hajmi hisobga olinishi lozim.

3 yildan ortiq bo'lmagan muddatga berilgan qisqa va uzoq muddatli kreditlar ta'minoti sifatida - qimmatliklar, qimmatbaho toshlar, yuqori tamg'ali (proba) qimmatbaho metallar va undan yasalgan buyumlar garovi, tegishli ruxsat va baholangan bo'lgan holda, Bankda saqlash sharti bilan garovga qabul qilinishi mumkin.

Korxona aylanmasidagi (muomaladagi) tovarlar garovi - faqatgina qisqa muddatli kreditlar bo'yicha, yuqori likvid tovarlar (uzoq muddat saqlanishi mumkin bo'lgan) qabul qilinishi mumkin. Bunda korxona omboridagi tovarlar qoldig'i kreditni ta'minlash uchun yetarli miqdordan kamaymasligi lozim. Mazkur shartga rioya etmaslik holatlari kreditning qaytarilmagan summasini muddatidan oldin undirib olish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

b) Ko'chmas mulk garovi (ipoteka):

Yuridik va jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan bino, inshootlar, turar uy-joy, savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlari va boshqa ko'chmas mulklar, ular joylashgan yer uchastkalari (huquqlari) bilan birgalikda garovi taqdim etilayotganda, kreditning maksimal muddati ob'yekt baholangan foydali (qolgan) foydalanish (hayoti) muddatidan kam bo'lishi zarur.

Butun korxona garovi taqdim etilayotganda, uning faoliyati uchun mo'ljallangan barcha turdagi mulklar, jumladan, muhandislik kommunikatsiyalari, yer uchastkalari, bino, inshoot, uskuna, inventar, xom-ashyo, mahsulot, talab huquqi va boshqalarni garov qamrab olishi lozim.

Agar yaxlit majmuaga tegishli mulkning bir qismi garov sifatida taqdim etilayotganda, ushbu mulkning sotish imoniyati mavjudligiga, garovga qo'yuvchiga tegishli bo'lgan bitta hududda joylashgan bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan har xil mol-mulklar (bino va inshootlar, asbob-uskunalar va b.) garovga olingan taqdirda, mazkur mol-mulklar yaxlit holda mulkiy majmua sifatida garovga olinishiga e'tibor qaratish kerak.

Bino inshoot ipotekasida ular joylashgan yer uchastkasini ham birgalikda garovga olish, ipoteka shartnomasida aniq yer uchastkasi va uning miqdorini ko'rsatilishi, faqat ko'chmas mulk egallab turgan yer uchastkasi va uchastkaning garovga qo'yilayotgan ob'ekt ishlashini ta'minlaydigan qismigina emas, balki kadastr xizmati tomonidan berilgan guvohnomaga asosan garovga qo'yuvchiga tegishli bo'lgan yer uchastkasini to'laligicha garovga olish maqsadga muvofiqdir.

2.2. Tijorat banklarida kredit ta'minoti uchun qabul qilinadigan garov ta'minotini baholash tartibi va tahlili

Ma'lumki, mol-mulkni garovga olish, garov shartnomasini rasmiylashtirishning asosiy bosqichlaridan biri - bu garov narsasini baholashdir.

Garov predmeti bahosini aniqlash tartibi. Kredit ajratuvchi bo'linma qarz oluvchining kredit ta'minoti to'g'risidagi taklifini o'rganib chiqib, garov turini aniqlaydi va taqdim etilgan mol-mulkning qiymatini kelishish uchun kredit xatarlarini boshqarish departamentiga yuboradi.

Bank (filial) mas'ul mutaxassisining asosiy vazifasi garov mulkining qiymatini uning likvidligiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni hisobga olgan holda aniqlashdan iborat.

Kredit ta'minotiga doir hujjatlarni rasmiylashtiruvchi bank(filial) mas'ul mutaxassisi mazkur mulk garovdan, band sotishlikdan, boshqa majburiyatlardan xoli ekanligiga va garovga olinishi mumkinligiga ishonch hosil qilishi shart. Garovning turiga va kredit olayotgan shaxslarga bog'liq ravishda hujjatlar rasmiylashtiriladi.

Bank (filial) mas'ul mutaxassisi obyekt joylashgan manzilga chiqib mol-mulkka va mol-mulkning egalik huquqini beruvchi hujjatlarni mos ekanligiga ishonch hosil qilishi, mulkni ko'zdan kechirishi, uning holatini va qiymatini belgilashga ta'sir etishi mumkin bo'lgan boshqa omillarni baholashi, ko'zdan kechirish varaqasini to'ldirishi shart. Shundan so'ng quyidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi:

- garov mulkining huquiy ahvoli to'g'risidagi (titul, mulkiy huquqlari va servitutlari);
- ko'chmas mulk tarkibiga kiruvchi binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalari to'g'risidagi;
- shahar yoki tumanning iqtisodiy hududlari xaritasi bo'yicha baholanayotgan obyektning joylashgan yeri va obyektning qiymatiga ta'sir ko'rsatuvchi bevosita uning yon atrofi to'g'risidagi;

- ishlab chiqarilgan, qurilgan yili, eskirish darjasi va texnik holati to'g'risidagi ma'lumotlar.

Garov predmetining bozor qiymati mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan belgilanadi. Bank (filial) mas'ul mutaxassisi xolis baholash tashkilotining hisobotini amaldagi qonunchilik talablariga hamda O'zbekiston Respublikasida baholashning mavjud standartlarga muvofiqligini tekshirib chiqishi darkor.

Mulkning bozor qiymati uch yondashuv bilan olinadigan hisob qiymatini tahlil qilish yo'li bilan aniqlanadi, ya'ni:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan noturar bino va inshootlarning tiklash qiymatining tahlil paytiga amal qiluvchi yaxlitlangan ko'rsatkichlari to'plami bo'yicha xarajatli yondashuv bilan;

- mintaqaviy birjalar va ommaviy axborot vositalarining ma'lumotlari asosida sotuvlarning to'g'ridan-to'g'ri qiyosiy tahlil qilinish yondashuvi bilan;

- daromadli yondashuv bilan.

Mulkning garov bahosi baholash hisob-kitoblarini, mintaqaviy birjalar ma'lumotlarini va ob'yektning likvidligini kompleks tahlil qilish asosida bozor narxiga nisbatan foizlarda aniqlanadi. Garovga taklif etilgan mulk yuqori darajada likvidlikka ega bo'lgan ayrim hollarda, istisno tariqasida diskont miqdori boshqaruvning qarori asosida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Garovga qo'yilgan mulk bo'yicha bank (filial) ning mas'ul mutaxassisi garovga qo'yishga taklif qilinayotgan mulk amaldagi qonunchilikka mos kelishi yuzasidan uning bozor qiymatini aniqlanishi to'g'risidagi mustaqil baholovchi tashkilotining hisobotini tekshirib chiqishi kerak. Hisobotda quyidagilar ko'rsatilishi kerak: hisobot tuzilgan sana va tartib (ro'yxatga olish) raqami; baholashni o'tkazishi uchun asos; baholovchi tashkilotining manzili, unga berilgan baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasining va baholash faoliyatini amalga oshirishda fuqarolik mas'uliyatini sug'urtalash polisining nusxalari; yuridik shaxs egaligidagi baholash ob'yektining uning qiymatini aniqlash sanasidagiga aynan identifikatsiya qilish imkonini beradigan

tavsifi, shuningdek yuridik shaxsning rekvizitlari; baholash standartlari; baholash ob'yektini baholashdan o'tkazish izchilligi va yakuniy qiymati, shuningdek olingan natijaning qo'llanish chegaralari; baholash ob'yektining qiymati aniqlangan sana (baholash sanasi); baholovchi tashkilot foydalanadigan hamda baholash ob'yektining miqdor va sifat xususiyatlarini belgilaydigan hujjatlar ro'yxati; garovga qo'yilayotgan ko'chmas mulkning ob'yektlar qirqimidagi qiymati; uskunaning unumdorlik ko'rsatkichlari va sifati. Baholash to'g'risidagi hisobotda baholash ob'yekti qiymatini hisoblash chiqish usulini asoslash uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin. Agar baholash obyektini baholashdan o'tkazishda bozor qiymatidan farqlanuvchi qiymat aniqlangan bo'lsa, baholash to'g'risidagi hisobotda bahoni aniqlash mezonlari va baholash ob'yektining bozor qiymatini aniqlash imkoniyatidan voz kechish sabablari ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Baholash to'g'risidagi hisobotning har bir beti baholashni baholashni o'tkazgan baholovchi (baholovchilar) tomonidan imzolanadi, baholovchi tashkilot rahbari tomonidan va ushbu tashkilot muhri bilan tasdiqlanadi. Baholash to'g'risidagi hisobotning mazmuni mazkur hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itmasligi hamda ikki xil talqinga yo'l qo'ymasligi kerak. Baholash tashkilotida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab 6 oydan ortiq muddatga ega mulklarning bozor qiymati to'g'risidagi hisobotlar, qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Zarur bo'lgan holda, baholash to'g'risidagi hisobotning ishonchliligini tekshirish uchun mazkur hisobot qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa baholovchi tashkilot tomonidan shartnoma asosida ekspertizadan o'tkazilishi mumkin.

Filial boshqaruvchisi va garov mulki bo'yicha nutazassis garov ob'yektining tanlanishi, likvidligi va garov bo'yicha hujjatlarning to'g'rira rasmiylashtirilishi uchun shaxsan javobgardir.

2-jadval

Garovni baholash tamoyillari¹¹

Garov turi	Bozor qiymati yoki baholash, quyidagilar bo'lsa	Garov predmetining qiymati
Yer maydonlari (qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun mo'ljallangan hamda bog' va uzumzorlar, shuningdek, qurilish uchun mo'ljallangan)	Mustaqil baholovchi(agent) bahosidan, bir yillik foiz to'lovlarini chegirib tashlagan holda	Ko'pi bilan 50%
Uy-joy	a) mustaqil baholovchi (agent) bahosidan bir yillik foiz to'lovlarini chegirib tashlagan holda;	Ko'pi bilan 75%
	b) uy-joy ipoteka krediti hisobiga sotib olingan(qurilgan) bo'lsa, xarid (qurilish) bahosidan kelib chiqqan holda	100% gacha
Biznes uchun mo'ljallangan bin ova inshootlar (savdo do'konlari, mehmonxonalar, sexlar, ofis binolari va h.k.)	mustaqil baholovchi (agent) bahosidan bir yillik foiz to'lovlarini chegirib tashlagan holda	Ko'pi bilan 80 %
Qurilish maydonlari (biznes faoliyati uchun mo'ljallangan)	mustaqil baholovchi (agent) bahosida bir yillik foiz to'lovlarini chegirib tashlagan holda	Ko'pi bilan 70 %
Texnologik uskunalar (asosiy vositalar)	a) mustaqil baholovchi (agent) bahosidan amortizatsiyani chegirgan holda qoldiq qiymatidan	Ko'pi bilan 80%
	b) bank krediti hisobiga import shartnoma bo'yicha sotib olinganyangi texnologik uskunalar,transport vositalari, texnikalar (mulklar) ularning sotib olingan (GTD) bahosidan kelib chiqqan holda	Ko'pi bilan 80%
Komputer texnologiyalari va	Komputer texnologiyalari, maishiy texnika	Ko'pi bilan

¹¹ Tijorat banklari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

maishiy texnikalar	(ko'chma dastgohlar) mustaqil baholovchi (agent) bahosidan (sotib olingan yilini hisobga olganda)	30%
Transport va texnika vositalari	mustaqil baholovchi (agent) tomonidan belgilangan bozor bahosidan kelib chiqib	Ko'pi bilan 80 %
Ombordagi tovarlar va mahsulot qoldiqlari	Ombordagi tovarlar, tayyor mahsulot qoldiqlari (omborga kirim qilinganiga uch oydan ko'p bo'lmasligi lozim) - ularning уларнинг (sotib olish/ishlab chiqarish) tannarxi bahosidan kelib chiqqan holda	Ko'pi bilan 60 %
Zargarlik buyumlari	mustaqil baholovchi (agent) tomonidan belgilangan bozor bahosidan kelib chiqib	Ko'pi bilan 50 %

Jadval ma'lumotlatidan ma'lum bo'ldiki, yer maydonlari qiymatining yarim qismigacha, uy-joy qiymatining 75 foizi, yoki to'la qiymatigacha kredit ajratilishi mumkin ekan. Uy-joy faqatgina ipoteka krediti hisobiga olingan taqdirda uning to'la qiymat ajratilishi mumkin bo'ladi. Chunki uy-joy o'z qiymatini hech qachon yo'qotmaydi va u har doim o'z qiymatini o'stirib boradi.

tigach bo'lgan qismiga kredit a Biznes uchun mo'ljallangan bino va inshootlar, texnologik uskunalar, transport va texnika vositalari qiymatining 80 foizigacha bo'lgan qismiga Qurilish maydonlari qiymatining esa 70 foizigacha bo'lgan qismiga, ombordagi tovarlar va mahsulot qoldiqlari qiymatining 60 foizigacha bo'lgan qismiga, zargarlik buyumlarining qiymatining 50 foizigacha ya'ni yarim qiymatigacha bo'lgan qismiga kredit ajratilishi mumkin.

AQSHda uzoq muddat davomida "10q10" prinsipi qo'llanilgan. Bunda qarz oluvchi kreditni olishdan oldin 10% va olganidan keyin yana 10 %, jami 20 % miqdorida pulni bankka depozitga qo'yishi kerak bo'ladi. Lekin bu holatda kafolat kreditor manfaatlarini qisman himoya qilishga xizmat qiladi xolos.

3-jadval

Moliyaviy instrumentlar va ularning baholanishi ¹²

Ta'minot turi	Bozor qiymati yoki baholash, quyidagilar bo'lsa	Ta'minot qiymati
Davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari	Birjadan tashqari bozorlarda xaridor taklif etgan narxdan 100%	90 %
Davlat obligatsiyalari	Fond birjasida xaridor taklif etgan narxdan 100%	90 %
Aksiyalar (kotirovka qilinadigan)	Fond birjasida xaridor taklif etgan narxdan 100%	70 %
Aksiyalar (kotirovka qilinmaydigan)	Kompaniyaning moliyaviy holatidan (o'tgan yining auditdan o'tgan moliyaviy hisobotlariga asoslangan holda) kelib chiqib nominal bahosidan 100%	50 %
Bank filiallari va boshqa banklardagi milliy va chet el valyutadagi depozitlar	Bank ishonchlilik reytingidan kelib chiqib	0-100% gacha
Sug'urta kompaniyalari yoki bank kafolatlari	Kafolat beruvchining moliyaviy hisobotlariga ko'ra uning moliyaviy holati va mavqeidan kelib chiqqan holda	0-100% gacha
Sug'urta kompaniyalari ning kreditni qaytmaslik riskini qoplash sugurta polisi	Sugurta kompaniyaning moliyaviy hisobotlariga ko'ra uning moliyaviy holati va mavqeidan kelib chiqqan holda	0-100 % gacha

Moliyaviy vositalarning baholanishida eng yuqori o'rinda davlat qisqa muddatli obligatsiyalari baholanadi.

Garovga qo'yilayotgan mulklarni baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

¹² Tijorat banklari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

- garov mulkini baholovchi tashkilot tomonidan baholash;
- garov mulki baholovchi tashkilot tomonidan baholangandan so'ng, garov mulkining qiymatini garovga qo'yuvchi/qarzdor bilan kelishish va kelishish bayonnomasini rasmiylashtirish.

Barcha hollarda Kreditlash xizmati ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qilinguncha, garovga qo'yilayotgan mulkni mulk egasi ishtirokida bevosita joyiga chiqib ko'zdan kechirgan va o'rgangan holda baholash talab etiladi. Garov mulkini ahvolini o'rganish jarayonida bevosita joyiga chiqib, garov narsasini fotosuratlarini, kerak bo'lsa, videotasvirlarini olish, Kredit komissiyasi tomonidan Kreditlash xizmati ko'rsatish masalasi ko'rib chiqilayotganda, garov narsasi fotosuratlari, videotasvirlarining taqdimotini o'tkazish lozim bo'ladi.

Garov mulkini baholovchi tashkilot tomonidan baholash. "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonunning 11-moddasida ko'zda tutilgan holatlarda garovga olinayotgan mulklar O'zbekiston Respublikasining xususilashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining baholash faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasiga ega bo'lgan Bank tomonidan tanlangan, tajribali va nufuzli baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi lozim. Bunda, lozim bo'lsa, baholovchi tashkilot bilan mulkni baholash bo'yicha shartnomani uch tomonlama, ya'ni garovga qo'yuvchi, baholovchi va Bank o'rtasida tuzilib, baholashning haqqoniy o'tkazilishini ta'minlash mumkin.

Baholash ob'ektini baholashdan o'tkazganlik uchun pul mukofotining miqdori baholash to'g'risidagi shartnomada belgilab qo'yiladi va u baholash ob'ekti qiymatining baland-pastligiga bog'liq bo'lishi mumkin emas. Baholovchi tashkilotning xizmati uchun pul mukofoti (to'lovi) qarzdor/garovga qo'yuvchining o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Mulkning bozor qiymati uchta usul bilan olingan hisob-kitob qiymatini tahlil qilish orqali aniqlanadi: a) xarajat usuli; b) solishtirish usuli; v) daromad usuli.

Bank filiallari, albatta, baholovchi tashkilotlardan garov ob'ekti qiymatini aniqlashda qo'llanilgan uslub va hisob-kitoblar, tasdiqlovchi hujjat va ma'lumotlarni talab qilib olishlari kerak.

Baholash to'g'risidagi xulosa qonun talablariga javob bermagan yoki mulkning baholovchi tomonidan belgilangan qiymatining to'g'riligiga shubha tug'ilgan hollarda, bunday xulosani qabul qilmaslik va mijozdan mulkni yetarli tajribaga ega bo'lgan, nufuzli baholash tashkilotida baholatishni talab qilib, baholashda Bankning malakali mutaxassisi ishtiroki va ta'sirini ta'minlash lozim bo'ladi. Bunda, zarur bo'lgan holda, baholash to'g'risidagi hisobotning ishonchliligini tekshirish uchun belgilangan tartibda boshqa baholovchi tashkilot tomonidan shartnoma asosida ekspertizadan o'tkazilishi mumkin.

Garov mulki baholovchi tashkilot tomonidan baholangandan so'ng, garov mulkning qiymatini garovga qo'yuvchi/qarzdor bilan kelishiladi va yozma ravishda garov narsasi bahosini kelishish bayonnomasini rasmiylashtiriladi.

Garov narsasi bahosining kelishuvi Bank filiali Baholash komissiyasi va qarzdor/garovga qo'yuvchi tomonidan amalga oshiriladi. Baholash komissiyasi ishida filial rahbari, muhandisi, kredit bo'lim boshlig'i va huquqshunos-maslahatchisining ishtiroki majburiydir. Garovga qo'yilgan mulk qiymatini kelishish garovga taklif etilayotgan mulk joylashgan joyga chiqib, tegishli hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Garov narsasi bahosini kelishish bayonnomasiga foto suratlar ilova qilinishi kerak. Bunda garov narsasining kelishuv bahosi baholovchi tashkilot bahosidan yuqori bo'lmasligi lozim.

Bank va garovga qo'yuvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra garov predmetini baholashni tuman/shahar filial yoki mintaqaviy filiali rahbarining buyrug'i bilan tuzilgan Baholash komissiyasi amalga oshiradi. Filial rahbarlari Baholash komissiyasining raisi bo'lib hisoblanadi. Garovga qo'yuvchi va tuman/shahar filiallari birgalikdagi baholash mazkur filiallar uchun bir qarzdorga o'rnatilgan kreditlash limiti doirasida kredit (lizing, kafolat berish) bo'yicha amalga oshiriladi. Boshqa holatlarda birgalikda garov mulkini baholash tegishli mintaqaviy filial tomonidan o'tkaziladi.

Bank kreditlari hisobiga import shartnomalar bo'yicha sotib olinib, keltirilgan yangi asbob uskunalar, transport vositalari, texnikalar (mulklar) garov predmeti bo'lganda, ularni tuman/shahar filiali yoki mintaqaviy filial Baholash

komissiyasi garovga qo'yuvchi bilan birgalikda baholashi (mustaqil baholash) mumkin.

Garov predmetini birgalikda baholash natijalariga ko'ra garov predmetini baholash dalolatnomasi rasmiylashtiriladi, bunda Bank filiali nomidan Baholash komissiya a'zolari va garovga qo'yuvchi tomonidan imzolanib, taraflarning muxri bilan tasdiqlanadi. Agar garovga qo'yuvchi uchinchi shaxs bo'lsa, dalolatnoma uch tomonlama, ya'ni qarzdor, garovga qo'yuvchi va Bank filiali Baholash komissiya a'zolari tomonidan imzolanadi va muxrlar bilan tasdiqlanadi.

Garovga qo'yilayotgan mulk o'ta sinchkovlik bilan baholanishi va uning bozor bahosi, sotilish zarurligi yuzaga kelgan taqdirda ehtimolli yo'qotishlarni hisobga olish kerak.

Garov mulkini baholashda quyidagi holatlarga ahamiyat berilishi talab etiladi:

- garov narsasi uzoq muddat saqlanishi xususiyatiga ega bo'lishi;
- garov narsasining moddiy va ma'naviy eskirishi darajasi;
- garov narsasi narxining nisbatan barqarorligi;
- garov narsasining keng iste'mol doirasiga egaligi, uning tez va erkin sotilishi imkoniyatlari va likvidlik sifat ko'rsatkichlari;
- taklif etilgan mulk "Garov to'g'risida"gi, "Ipoteka to'g'risida"gi qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlariga, mazkur Tartibga, mulk egasining ta'sis hujjatlarida boshqa ichki me'yoriy hujjatlarida, berilgan ishonchnomada ushbu mulkni garov sifatida olinishi mumkinligi, tassarruf etish bo'yicha cheklov va taqiqlar yo'qligi, garov shartnomasi yirik bitim, manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitim hisoblanganda, ta'sis hujjatlarida tegishli ta'qiq yoki cheklovlar mavjud bo'lganda, tegishli boshqaruv organlari (mulkdorlari) roziligi olinganligi;
- garovga taklif etilayotgan mulk davlat ulushi bo'lgan yuridik shahsga tegishli bo'lganda, bunday mulkni garovga qo'yish bo'yicha vakolat mavjudligi, lozim hollarda tegishli vakolatli organning roziligi olinishi;

- garovga taklif etilayotgan mulkda uchinchi shaxslarning ulushi borligi, unga nisbatan ta'qiq qo'yilmaganligi, avval boshqa kreditorlar oldida majburiyatlar bo'yicha garovga qo'yilmaganligi, nizoli emasligi;

- garovga qo'yilayotgan mulk ko'char mulk (asbob-uskuna, avtotransport vositalari v.b.) bo'lsa, mulk ishlab chiqarilgan yili, texnik hujjatlar bo'yicha barcha qismlar mavjudligi (butlanganligi), ishlab chiqarish quvvati;

- garovga qo'yilayotgan mulk avval foydalanilgan bo'lsa, amortizatsiya ko'rsatkichlari va baholanayotgan paytdagi haqiqiy ishchi holati.

Garov predmetini baholash dalolatnomasida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi talab etiladi:

- garov predmeti to'g'risida ma'lumot (miqdori, sifati, markasi, navi, ishlab chiqarilgan yili, pasport ma'lumotlari, o'lchamlari, mulk joylashgan yer maydoni to'g'risida ma'lumot va garov mulkini tavsiflovchi boshqa ma'lumotlar);

- garov predmetining kimga va qanday hujjatlar asosida tegishligi to'g'risida ma'lumotlar;

- garov mulki joylashgan joyi va hudud to'g'risida ma'lumot;

- birgalikda baholash natijasida aniqlangan garov mulkinig bahosi to'g'risida ma'lumot.

Garovdagi mulk qiymati Kreditlash xizmati summasining kamida 125 foizini tashkil etishi Baholash komissiyasi mulkning baholangan bozor qiymatini minimallashtirib, mulkning qadrsizlanishi, ma'naviy-moddiy eskirishi va boshqa holatlar bilan bog'liq barcha xatarlarini hisobga olishi lozim.

Hozirgi paytda tijorat banklari garov, kafillik yoki sug'urta shartnomalarini kredit shartnomasini tuzgandan keyin rasmiylashtiradilar. Lekin shartnomani kredit qaytishini kafolatlovchi hujjatlar taqdim etilganidan keyingina kuchga kirishi maqsadga muvofiq deb hisoblanishi mumkin.

4-jadval

Garov predmeti sifatini baholash mezon¹³

¹³ Abdullayeva Sh.Z. "Bank ishi" O'quv qo'llanma T. "Moliya" 2003 y. 163-bet

Ishonchlilik reytingi	Garovdagi mulk va ssuda qiymatining nisbati	Garov predmeti likvidliligi	Garov predmetini nazorat qilish imkoniyati	Misollar
A (yuqori)	100 % yoki undan yuqori	Tez sotiladi	Butunlay bank nazoratida	Bankdagi depozit
B	100 % dan kam	Narxlar tebranishi va realizatsiyasida qiyinchiliklar bo'lishi mumkin		Bankka saqlash uchun berilgan kotirovka qilinadigan qimmatli qog'ozlar
C	100 % dan kam		Nazorat qilishda muammolar bor	- kotirovkalanm aydigan qimmatli qog'ozlar; - tovar-moddiy boyliklar
D	100 % dan kam	Narx tushadi, sotishda muammolar bor	Nazorat qilishda muammolar bor	Tovar-moddiy boyliklar
E	100 % dan kam	Narx tushadi	Nazorati yo'q	Tovar-moddiy boyliklar

Garov ostida kreditlash jarayonida tijorat banklari odatda ssudalarni mol-mulkni butun qiymatiga emas, balki muayyan bir qismiga (garov obyekti qiymatining 50% dan 90% igacha) beradi. Shuning uchun garov beruvchida o'z mulkini qo'shimcha (kelgusi) garovga berish imkoniyati paydo bo'ladi. Mol-mulk (huquq) qiymatiga nisbatan qancha past bo'lsa, qarzdorda kelgusida qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj tug'ilganda qo'shimcha garov ehtimoli shuncha ortadi.

Bir yildan ortiq muddatga beriladigan kredit bo'yicha ta'minot sifatida ko'chmas mulk, ishlab chiqarishda qo'llaniladigan va boshqa uskunalar, shuningdek transport vositalari taqdim etiladigan hollarda mulkning garov qiymati u ma'naviy va jismoniy eskirishini Hamda qadrsizlanishi mumkinligi xatarini hisobga olganda quyidagicha bo'lishi kerak:

- bino va inshootlar - ko'pida baholash qiymatining 70%;
- ishlab chiqarish uskunolari va boshqa uskunalar, shuningdek transport vositalari (chiqarilganidan keyin 3 yilgacha vaqt o'tgan) - ko'pida baholash qiymatining 60%;
- ishlab chiqarish uskunolari va boshqa uskunalar, shuningdek transport vositalari (chiqarilganidan keyin 3 yilgacha vaqt o'tgan) - ko'pida baholash qiymatining 50%.

Garov bahosi yozma shaklda bayon etilgan bo'lishi va unda foydalanuvchilarga bahoni belgilashda tayanilgan asoslar xususida tasavvur berish uchun yetarli ta'rif bo'lishi zarur. Garovni baholashda uning bozor qiymatini aniqlashga tayanish lozim. Baholash ob'ektining bozor qiymati deganda mazkur baholash ob'ekti ochiq bozorda raqobat sharoitida sotilishi ehtimolga eng yaqin bo'lgan narx tushuniladi. Bunda bitim tomonlari o'z manfaatlarini o'ylab va majburlashsiz ish tutadilar, barcha zarur axborotga ega bo'ladilar, bitim narxining hajmiga esa, biron-bir favqulodda vaziyat, jumladan tomonlardan birining bitimni tuzish majburiyati ta'sir ko'rsatmaydi. Garovga qo'yilayotgan mulkning bozor qiymatini baholash, agar hisobot tayyorlash uchun maxsus bilimlar va tegishli litsenziyalar talab qilinsa, mustaqil baholovchi tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Moliyaviy jihatdan eng barqaror xizmat ko'rsatadigan bank bilan ishonchli munosabatlarga erishgan xo'jalik yurituvchiga beriladigan ishonchli kredit bu hisobga kirmaydi. Ta'minotning asosiy turlari mol-mulkni va qimmatbaho qog'ozlarni garovga qo'yish hamda kafolatdan iboratdir. Kredit bo'yicha olingan ta'minlanganlik kredit summasi va u bo'yicha foiz stavkalarini to'lashga yetarli bo'lgandagina kredit ta'minlangan deb baholanishi mumkin.

Olingan kredit mablag'lari korxonada ishlab chiqarish zaxirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot hamda mavjud moddiy boyliklarni ta'minlash uchun beriladi.

Quyida TIF Milliy banki tomonidan quyidagi ta'minotlar asosida kreditlar
bberilgan

5-jadval

TIF Milliy banki kredit portfelining ta'minoti tarkibi, (yil boshiga,%)¹⁴

Kredit ta'minoti	2015	2014	%
O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolati bilan ta'minlangan kreditlar	52,12	49,22	2,90
Asosiy vositalar garovi bilan ta'minlangan kreditlar	12,96	12,68	0,28
Ko'chmas mulk garovi bilan ta'minlangan kerditlar	12,83	12,56	0,28
Uchinchi shaxs kafilligi bilan ta'minlangan kreditlar	10,36	11,91	-1,55
Depozit mablag'lari bilan ta'minlangan kreditlar	5,37	6,02	-0,65
Avtomobillar bilan ta'minlangan kreditlar	4,06	4,10	-0,04
Sug'urta polisi bilan ta'minlangan kreditlar	1,04	1,01	0,04
Tovar moddiy zaxiralar bilan ta'minlangan kreditlar	0,56	0,45	0,11
Boshqa banklar aksiyalari bilan ta'minlangan kreditlar	0,49	0,60	-0,11
Ta'minlanmagan kreditlar	0,19	1,38	-1,18
Boshqalar	0,01	0,07	-0,06
Jami kreditlar	100,00	100,00	

Yuqorida TIF Milliy bankining kredit portfelining ta'minoti tarkibi berilgan. Unga ko'ra eng yuqori salmoqni hukumat kafolati asosida berilgan kreditlar tashkil etmoqda. Eng past darajada ta'minlanmagan kredit tashkil etmoqda.

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, TIF Milliy banki kredit portfeli tarkibida davlat kafolati ostida berilgan kreditlar yuqori salmoqqa ega, ya'ni mos ravishda 2014 yilda 2877786 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilda esa bu ko'rsatkich 3850528 mln so'mga etgan, ya'ni 972742 mln so'mga oshgan. Asosiy vositalar

¹⁴ Tijorat banklari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

garovi bilan ta'minlangan kreditlar ham oshgan (215750 mln so'm), ko'chmas mulk garovi ostida berilgan kreditlar esa 213983 mln so'mga ortgan. Uchinchi shaxs kafolati (68929 mln so'm), depozit mablag'lari (44774 mln so'm), avtomobillar bilan ta'minlangan kreditlar (59848 mln so'm), sug'urta polisi (18323 mln so'm) va tovar-moddiy zaxiralar (15010 mln so'm) ga oshgan. Ta'minlanmagan kreditlar va boshqalar esa keskin kamayib ketgan.

TIF Milliy bank kredit portfeli ta'minotini tahlil qiladigan bo'lsak, hukumat kafolati ostida berilgan kreditlarning ulushi eng yuqori (52,12%) bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 2,90 foizga oshgan. Shuningdek, asosiy vositalar garovi (0,28%), ko'chmas mulk garovi (0,28), sug'urta polisi (0,04%), tovar-moddiy boyliklar (0,11%) bilan ta'minlangan kreditlarning ulushi ham qisman oshgan.

Uchinchi shaxs kafolati ostida berilgan kreditlar (1,65%), depozit mablag'lari (0,65%), avtomobillar (0,04%), boshqa kompaniyalar aksiyalari (0,11%) bilan ta'minlangan kreditlar va ta'minlanmagan kreditlar (1,18%) ning ulushi o'tgan yilga nisbatan biroz kamaygan.

6-jadval

ATB Uzsanoatqurilishbank tomonidan berilgan kreditlarning ta'minotlari to'g'risida ma'lumot (yil boshiga, foizda)¹⁵

№	Ta'minot turlari	2013	2014	2015
1	Depozit	2,6	1,9	6,3
2	Transport vositalari	1,7	2,9	2,3
3	Inventar	0,1	0,01	0,02
4	Ko'chmas mulk	26,1	27,6	28,1
5	Jihozlar	5,3	5,2	4,8
6	Uchinchi shaxs kafolati	10,8	8,2	11,5
7	Davlat kafolati	8,4	5,8	4,8
8	Boshqa turdagi ta'minot	3,4	5,7	7,2
9	Uchinchi shaxs kafilligi	34,3	38,7	32,7

¹⁵ Tijorat banklari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

10	Ta'minotsiz	7,3	4	2,28
	Jami	100	100	100

ATB O'zsanoat qurilishbank tomonidan berilgan kreditlarning ta'minotini tahlil qiladigan bo'lsak, Shuningdek, ko'chmas mulk garovi (28,1), uchinchi shaxs kafolati (11,5%), boshqa turdagi ta'minotlar (7,2%), depozitlar (6,3%) bilan ta'minlangan kreditlarning ulushi ham qisman oshgan.

Uchinchi shaxs kafilligi ostida berilgan kreditlarning ulushi eng yuqori (32,7), jihozlar (4,8%), avtomobillar (2,3%) bilan ta'minlangan kreditlar va ta'minlanmagan kreditlar (2,28%) ning ulushi o'tgan yilga nisbatan biroz kamaygan.

Xulosa qilib aytganda, bank tomonidan berilgan kreditnind samaradorligi, uning o'z vaqtida qaytishi tijorat banki kreditining ta'minlanganligi hamda ta'minot portfelining sifatiga, shuningdek ta'minotda mol-mulk garovining xususiyatiga bog'liq.

Hozirgi paytda garov kafillik yoki sug'urta shartnomalarini kredit shartnomalarini kredit shartnomasini tuzgandan keyin rasmiylashtiradilar. Lekin shartnomani kredit qaytishini kafolatlovchi hujjatlar taqdim etilganidan keyingina kuchga kirishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

II BOB. Tijorat banklari kreditlarining garov ta'minotini takomillashtirish

Banklar tomonidan yuridik shaxslarni, kichik biznes korxonalarini oddiy kreditlash rivojlanib borishi bilan bir qatorda, ipoteka, iste'mol krediti, avtokredit berish, jismoniy shxslarga, zarur ehtiyojlar ga erkin ishlatish uchun kreditlar berish dasturlari ham avj olib bormoqda. Bu hol bank sohasidagi raqobatning birmuncha o'sishiga, shuning oqibati o'laroq, daromad kamayishiga yordam beradi.

Umuman olganda, hozir banklar taklif qilayotgan kredit mahsulotlarini shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- ipotekani kreditlash;
- chakana kreditlash (shu jumladan avtokreditlash);
- zarur ehtiyojlar uchun kredit berish;
- iste'mol krediti berish;
- kredit kartalarini qo'llash;
- iqtisodiyotning real sektoridagi korxonalarni (shu jumladan, kichik va o'rta biznes korxonalarini) kreditlash.

Respublikamiz tijorat banklari faoliyatida kreditlarni garov asosida berish kredit siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, garov ob'yektlaridan unumli foydalanish masalasini tahlil qilish ahamiyat kasb etadi. Bunda asosiy e'tibor garov ob'yektlarini sotish evaziga kreditlarning asosiy qarz summasi va ularga hisoblangan foizlarni undirishga qaratiladi.

Garov mexanizmi, kafolat, kafillik va boshqalardan foydalanishda hozirgi amaliyotda quyidagi asosiy kamchiliklari mavjud:

- kredit ta'minotining ikkilamchi shakllarini qayta baholash va mijozni kreditga layoqatliligini baholashda, pul oqimini tahlil qilishdagi kamchiliklar;
- garov ob'ektni sifati, uni saqlash va ishlatilishi, tartibi;
- kafilning moliyaviy holati ustidan dastlabki va keyingi nazorat qilish mexanizmining yo'qligi;

- garov shartnomasi shartlarini haqiqatdagi risk bilan mos kelmasligi;
- garov shartnomalari va kafillik hatlarini rasmiylashtirishdagi, ularni haqiqiy emasligiga olib keladigan kamchiliklar.

O'zbekistonda kredit ta'minotining ikkilamchi shakllarini rivojlantirish istiqbollari haqida gapirganda ularning har birida mavjud bo'lgan risklarni baholashga ham ahamiyat berish lozim.

Bu borada Germaniya tajribasi maqsadga muvofiqdir. Bu yerda banklar ta'minot samaradorligini baholashning 3 balli tizimidan foydalanadilar va unga mos ravishda kreditning yuqori chegarasini belgilaydilar. Kafillik (kafolat) va qimmatli qog'ozlar garoviga nisbatan past ball olingan. Kafilning kreditga layoqatliligi yuqori bo'lganda kredit summasi 100%, shubhali bo'lganda esa kafillik shartnomasi yoki kafolat xatidagi summaga nisbatan kamroq belgilanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Sud va boshqa organlar qarorlarini ijro etish to'g'risida"gi qonunining 52 moddasiga ko'ra jismoniy shaxslarning hayoti uchun zarur bo'lgan uy-joy, kvartira va boshqa ashyolarga undiruvni qaratish taqiqlangan.

O'zbekistonda yer davlat mulkidir va u foydalanuvchilar: fermer, shirkat xo'jaliklari va boshqalarga ijaraga, dehqon xo'jaliklariga esa umirbod meros qilib qoldiriladigan tarzda foydalanish uchun beriladi. Qonun fermer xo'jaliklariga yer uchastkasini ijaraga olish huquqini bank kreditini qaytarilish ta'minoti sifatida garovga qo'yishiga ruxsat bergan.

Hozirgi vaqtda ushbu huquqni amalga oshirish mexanizmi 2004 yil 18 aprelda 1336-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan «Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qiymatini baholash tartibi to'g'risida Nizom» hamda 2004 yil 30 aprelda 1345-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan «Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risida Nizom» amalga kiritilish bilan yaratildi. Ammo yerni ijaraga olish huquqini garovga olib kredit berishni ipoteka krediti deb qarash noto'g'ri bo'lar edi.

Ushbu munosabatlarni ipoteka munosabatlari deb qarash uchun yetarli asos mavjud emas. Ipoteka kreditida kredit qaytarilmagan taqdirda ipoteka ob'ekti:

ko'chmas mulk yoki yer bank ixtiyoriga o'tadi va uni bank sotganidan keyin uning egasi, mulkdori o'zgaradi.

Yer uchastkasidan foydalanish huquqini kreditni qaytarish ta'minoti sifatida garovga qo'yilganda va kredit qaytarilmaganda yer uchastkasini ijaraga olish huquqi boshqa shaxsga sotiladi va natijada yer uchastkasini ijaraga olgan shaxsgina o'zgarib, yerning mulkdori o'zgarmasdan qoladi. Ijara muddati tugagandan keyin ushbu yer uchastkasi qaytadan boshqa shaxsga ijaraga berilishi yoki boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin. Davlat ipoteka kreditini rivojlantirishdan bevosita manfaaddordir.

Hozirgi zamon samarali kredit munosabatlarini shakllantirish va uni rivojlantirish butun dunyoda banklarning mamlakat iqtisodiy hayotidagi o'rni va roli haqidagi shakllangan tasavvurga javob beradigan, yanada rivojlangan va yanada mustahkam bank tizimini shakllanishiga yordam beradi. Shu sababli, kredit bilan bog'liq barcha huquqiy me'yoriy qonunlarni takomillashtirish zarur bo'lyapti. Bu borada quyidagi muammolar keltirish mumkin:

- Respublikamiz tijorat banklarida uzoq muddatli resurslarni yetishmaslik muammosi

Respublikamizdagi kreditlash amaliyotlari bilan bog'liq dolzarb muammolardan biri bu tijorat banklarining yetarli moliyaviy resurslariga ega emasligidadir.

Hozirgi kunda respublikamizdagi tijorat banklari kreditlarni asosan o'z mablag'lari hisobidan taqdim etmoqdalar. Ammo, tijorat banklari amaliyotida qisqa muddatli mablag'lar ko'p bo'lganligi holda uzoq muddatli mablag'lar deyarli kam. Kreditlarning uzoq muddatga berilishini inobatga olsak, tijorat banklari aynan uzoq muddatli resurslarga ehtiyoj sezadi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari resurslarining yetarliligini baholash maqsadida ularning talab qilib olinadigan depozitlari miqdorini jami depozitlar hajmidagi salmog'i aniqlanadi. Agar ushbu ko'rsatkich 30 foizdan yuqori bo'lsa, unda tijorat bankining resurs bazasi yetarli emas, deb hisoblanadi.

- Kreditlarning ikkilamchi bozorining mavjud emasligi

Hozirgi kunda asosiy kamchiliklardan biri sifatida kredit bozori resurs bazasining yetarli shakllanmaganligini ko'rsatish mumkin.

Qimmatli qog'ozlar mexanizmining rivojlanishi nafaqat kredit bozorining rivojlanishi, balki hozirgi kunda mamlakatda sust rivojlanayotgan fond bozorinining faollashuviga ham turtki bo'ladi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar fond bozorinining 50 foizini aynan ipoteka qimmatli qog'ozlari tashkil etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek respublikamizdagi tijorat banklari ipoteka kreditlarini asosan o'z mablag'lari hisobidan taqdim etmoqdalar. Bu esa banklarda uzoq muddatli moliyaviy resurslarni taqchilligi muammosini keltirib chiqaradi. Rivojlangan xorijiy davlatlar va Rossiya kabi bir qator o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki ipoteka kreditlari ta'minoti uchun yetarli darajada moliyaviy resurslarni jalb etish mexanizmini yaratmay turib mamlakatda ipoteka munosabatlarini rivojlantirish mumkin emas. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi muammosi talabini qondirish uchun ipoteka qimmatli qog'ozlarining chiqarilishini taqazo etadi.

Masalan, mazkur mamlakatlarda tijorat banklari moliyaviy rusurslarni ipoteka kreditiga garov qilib qo'yilgan mulk asosida qimmatli qog'ozlarni (garov qog'ozlari) bozorga chiqarib, bozordagi mablag'larni jalb yetishga erishadilar. Ipoteka qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi uzoq muddatli resurslarga bo'lgan ehtiyojni qondiradi va ipoteka krediti berilishini belgilaydi.

- Uy joy bozorida talab va taklif o'rtasidagi nomutunosiblik

Uy-joy taklifi va talabi o'rtasidagi barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyatga egadir. Respublikamizda uy-joy ob'ektlari qiymatining keskin o'sishiga yo'l qo'ymaslikning maqbul yo'llaridan biri uy-joy taklifini oshirish hisoblanadi. Bir qator xorijiy davlatlar hamda Rossiya tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, uy taklifining sezilarli darajada oshmasligi, bozorda uy-joy narxini keskin ravishda oshishiga olib keladi. Bu esa, aholining to'lovga qobil talabining sezilarli darajada pasayishiga va ularga berilgan ipoteka kreditlarining o'z vaqtida qaytarmasligiga olib keladi.

Respublikamizda uy-joy qurilish hajmining sezilarli darajada qisqarishi, aholining pullik daromadlari o'sishi hamda urbanizatsiya jarayonlari uy-joy bahosining keskin ravishda o'sishiga olib keldi.

O'zbekistonga pul jo'natmalari tizimi orqali jismoniy shaxslar tomonidan kiritilayotgan mablag'lar hajmi yiliga o'rta hisobda 1.5 barobardan o'sib bormoqda. Bularning natijasida uy-joy ob'ektlariga nisbatan kuchli talab yuzaga keldi. Bu o'z navbatida uy-joy ob'ektlarini narxini keskin ravishda oshishiga olib keldi.

Respublikamizda ipoteka munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar oshirishi kerak bo'lib, bular quyidagilardan iboratdir:

- Ipoteka munosabatlar amaliyotlarini huquqiy asoslarining takomillashtirish

Barcha huquqiy munosabatlar kabi ipoteka munosabatlarini tartibga solishdagi qonun hujjatlarining o'rni nihoyatda kattadir.

Ipoteka munosabatlarini to'laqonli faoliyat boshlashi uchun ayrim qonun hamda qonunosti hujjatlari takomillashtirilishi lozimdir. Xususan, Fuqoralik Kodeksining 280 va 281 moddalariga garovga olingan ko'chmas mulkka taraflarning kelishuviga asosan suddan tashqari tartibda undiruvni qaratish to'g'risidagi, hamda "Sud hujjatlari va boshqa organlarning hujjatlarini ijro qilish to'g'risida"gi qonunlarga bir qator o'zgartirishlar kiritilishi lozim. Shu bilan birga "Garov to'g'risida"gi qonunning mulkni baholashga doir moddalariga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi kerakdir.

Yuqorida bir necha marta qayd etlganidek, ipoteka birinchi navbatda bu aniq ko'chmas mulk garovi ostida beriladigan kreditdir. Oddiy bank krediti garov bilan ta'minlanmagan bo'lishi mumkin. Ipoteka kreditida esa kredit qarzdor tomonidan qaytarilmagan taqdirda garovga qo'yilgan ko'chmas mulk sotiladi hamda tushgan tushum hisobidan kredit va unga hisoblangan foizlar undiriladi.

Lekin, hozirgi kunga qadar qarzdor tomonidan o'z majburiyati ijro etilmagan taqdirda, qarz beruvchining berilgan kreditini garov predmeti hisobidan undirish huquqini amalga oshirish mexanizmi to'la ishlab chiqilmagan.

Ipoteka majburiyatlarining amalda ijro etilishini ta'minlash undiruvni garovga olingan mulkka qaratish me'yorlarini qo'llamasdan amalga oshirishni iloji yo'q.

Shuningdek, O'zbekiston sharoitida banklar tomonidan kreditni qaytarish ta'minoti sifatida garovga olingan ko'chmas mulkni sotish bilan bog'liq huquqni amalga oshirish amaliyoti nihoyatda murakkab va uzoq davom etadigan, katta miqdordagi mablag' xarajatlarni talab etadigan sudda ish ko'rish bilan bog'liq bo'lish holati shakllangan. Amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko'ra garovga qo'yilgan mulkka kreditor foydasiga undiruvni qaytarish faqat sud orqali amalga oshirilishi mumkin. Ammo sud tomonidan qarz beruvchi foydasiga qaror chiqarilgan taqdirda ham ko'chmas mulkka undiruvni qaratish mushkulligicha qolmoqda.

- Aholining daromadlari va ipoteka kreditlari bo'yicha to'lovlar miqdori o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash

Aholining daromad darajasi nisbatan past bo'lganligi sababli dastlabki ipoteka badal miqdorlarini 5-10 foizgacha tushirish hamda imtiyozli kredit berilishi uchun zamin bo'ladigan yetarli resurs bazasini shakllantirish lozim.

Shuningdek aholining kam ta'minlangan qatlamlarining daromad darajasi va ipoteka kreditlarining o'rtacha foiz stavkasi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash maqsadida, beriladigan ipoteka kreditlarining foiz to'lovlarini respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarning mablag'lari hisobidan subsidiyalashtirish tizimini joriy etish lozim.

- Respublikamizdagi tijorat banklarida uzoq muddatli resurslarga bo'lgan talabni garov xatlari bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish.

Ma'lumki, 2006 yil 4 oktyabrda O'zbekiston Respublikasining «Ipoteka to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning avvalgi ipoteka munosabatlarini tartibga soluvchi qonun va qonun osti hujjatlaridan farqi shundaki, u qonun qonunchiligimizda butunlay yangi institut bo'lgan «Garov xati» tushunchasini kiritdi.

Bu O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligi uchun o'ziga xos yangilik hisoblanadi. Mazkur qonunning qabul qilinishi bilan fuqarolik qonunchiligiga garov xati deb nomlanuvchi yangi institut kirib keldi.

Garov xati fuqarolik va tijorat muomalasidagi yangi turdagi qimmatli qog'oz hisoblanadi. Garov xati institutini kiritishning zarurligi, birinchidan, garov xatini mavjudligi, uning egasi, ya'ni garov saqlovchi huquqini tasdiqlashini yengillashtiradi; ikkinchidan, garov xatini salohiyati investorlar o'rtasida joylashtirish maqsadida, u shaxsiy qimmatli qog'ozdan daromad keltiradigan instrumentga aylanishi mumkin; uchinichidan, garov xatidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish uni o'zini ham garovga qo'yish ipoteka saqlovchisiga qayta moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Garov xati instituti kredit tashkilotlariga ipoteka kreditlari uchun zarur bo'lgan «uzoq muddatli» mablag'larni jalb etish imkonini beradi, oddiy kreditlardan farqli ravishda, ipoteka kreditlari uzoq muddatga va nisbatan katta bo'lmagan foiz stavkalari bilan beriladi.

Lekin hozirgi vaqtda tijorat banklari tomonidan garov xatlari bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi yo'lga qo'yilmagan. Agar tijorat banklari tomonidan qayta moliyalashning mazkur tizimi joriy etilsa, banklardagi resurslar muammosini nisbatan hal etish, ularni samaradorligini oshirish hamda ipoteka kreditlarini berilishiga zamin yaratilar edi.

- Ipoteka kreditlarining ikkilamchi bozorining tashkil etish

Hozirgi vaqtda tijorat banklari ipoteka kreditlarini o'zlarining mablag'lari hisobidan moliyalashtirmoqdalar. Ipoteka kreditlarini uzoq muddatlarga berilishini inobatga olsak, ular aynan uzoq muddatli resurslarga ehtiyoj sezmoqdalar.

Tijorat banklari oldida turgan mazkur muammoni ipoteka kreditlarining ikkilamchi bozori ya'ni ipoteka qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirishi bilan ham hal etsa bo'ladi. Ipoteka qimmatli qog'ozlar bozorini shakllanishi tijorat banklarini uzoq muddatli resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi va ipoteka krediti berilishini kengaytiradi.

Bizga ma'lumki, ipoteka kreditini taqdim etadigan tijorat banklari arzon resurs bazasini respublikadagi ipoteka kreditini berishni qo'llab quvvatlash jamg'armasidan olishadi. Jamg'armadagi resurslar esa Moliya Vazirligi tomonidan shakllantiriladi. Ular mablag'ining umumiy miqdori 2 mlrd. sum miqdordaligini e'tiborga oladigan bo'lsak, ushbu mablag'lar ipoteka kreditlari tizimida sezilarli darajada kamligini e'tirof etish mumkin.

Shu o'rinda Jamg'arma respublikadagi resurslarni kapital bozoridan ipoteka bozoriga davlat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularni ipoteka qimmatli qog'ozlar bozorida ikkilamchi ishtirokchilarga sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari va boshqa fondlarga sotib ipoteka kreditlari uchun mablag'lar jalb etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

- Ipoteka kreditlash tizimining ikki pog'onali tizimini yaratish

Hozirgi davrda respublikamiz olimlari tomonidan ipotekali kreditlashning ikki bo'g'inli tizimini yaratishning maqsadga muvofiqligi xususida fikrlar bildirilmoqda. Ammo, ikki pog'onali kreditlash tiziminirng mukammal ko'rinishi hozirga qadar ishlab chiqilmagan.

Ikki pog'onali ipotekali kreditlash tizimi davlat darajasida ipoteka kreditlarini qayta moliyalash uchun shug'ullanuvchi maxsus Agentlik tuzishni ko'zda tutadi. Agentlikning maqsadi, shunday ipotekali kreditlash mexanizmini shakllantirish hisoblanadiki, u bir tomondan, ipoteka kreditlarining foiz stavkalarini aholi uchun qulay darajada shakllantirish imkonini beradi. Ikkinchidan ipotekali kreditlash jarayoniga uzoq muddatli resurslarni jalb qilish imkonini berishi lozim.

Ikki pog'onali ipotekali kreditlashning mazkur mexanizmi nisbatan takomillashgan mexanizm hisoblanadi. Bunda tijorat banklari ipoteka kreditlarini mijozlarga maqbul bo'lgan foiz stavkalarida beradilar. Undan keyin kreditlar Agentlik tomonidan sotib olinadi va u ipoteka majburiyatlari ta'minoti asosida ipoteka obligatsiyalarini chiqaradi. Agar mazkur obligatsiyalar bo'yicha defolt holati yuzaga kelsa, davlat to'lov yuzasidan kafil hisoblanadi va to'lovni amalga oshiradi.

Respublikamizda naqd pulsiz hisob-kitob shakllaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish borasida qator muammolar mavjud. Xususan, taraqqiy etgan mamlakatlardan farqli o'laroq, O'zbekiston Respublikasining tijorat banklari milliy valyutada faqat bitta "Nostro" vakillik hisobraqamiga ega. Ushbu vakillik hisobraqami O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining balansida ochilgan. Taraqqiy etgan mamlakatlarda esa, har bir tijorat banki milliy valyutada ikkita "Nostro" vakillik hisobraqamiga ega. Ushbu vakillik hisobraqamining bittasi Markaziy bankning balansida (vertikal vakillik hisobraqami) ochilgan bo'lsa, ikkinchisi mamlakatdagi boshqa tijorat banklarining balansida (gorizontal vakillik hisobraqami) ochilgan. Banklararo hisob-kitoblarning barchasi gorizontal vakillik hisobraqami orqali amalga oshiriladi. Tijorat bankining Markaziy bank bilan hisob-kitoblari (Markaziy bankdan kredit olish, Markaziy bankka depozitlar joylashtirish, majburiy zahira ajratmasini o'tkazish kabi operatsiyalar) vertikal vakillik hisobraqami orqali amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining o'zaro gorizontal vakillik hisobraqamlariga ega emasligi to'lovlar hajmini oshirishga to'sqinlik qiladi va naqd pulsiz hisob-kitoblar amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Naqd pulsiz hisob-kitob shakllaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish borasidagi dolzarb muammolardan biri ayrim banklarda likvidlilik muammosining mavjudligi hisoblanadi. Likvidlilik muammosi banklar orqali to'lovlarni o'tkazish hajmi va uzluksizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklari likvidlilikini ta'minlash borasidagi asosiy muammolar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Respublikamiz tijorat banklarining aktivlari tarkibida daromad keltirmaydigan va daromadlilik darajasi past bo'lgan aktivlarni, ya'ni kassali aktivlarni, bino va inshootlarni sezilarli darajada yuqori salmoqqa ega ekanligi muammosi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda respublikamiz tijorat banklari aktivlarining tarkibida salmoqiga ko'ra ikkinchi o'rinni kassali aktivlar egallaydi, uchinchi o'rinni esa, asosiy vositalarga

qilingan qo'yilmalar egallaydi. Holbuki, asosiy vositalar daromad keltirmaydigan aktiv hisoblanadi, kassali aktivlarning daromadlilik darajasi esa, juda pastdir. Rivojlangan industrial mamlakatlarning bank amaliyotida esa, tijorat banklari aktivlarining tarkibida salmoqiga ko'ra birinchi o'rinni kreditlar, ikkinchi o'rinni qimmatli qog'ozlar shaklidagi aktivlar, uchinchi o'rinni esa, kassali aktivlar egallaydi. qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar daromadlilik darajasiga ko'ra kreditlardan keyingi aktiv hisoblanadi. Bundan tashqari, ular banklarning likvidligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan ham, ko'plab xorijiy banklarda aktivlarning daromadlilik darajasini yuqori ekanligi kuzatiladi

- Respublikamiz tijorat banklari aktivlarining daromadlilik darajasiga salbiy ta'sir qiluvchi majburiy zaxira talabnomalarining mavjudligi.

2008 yilning noyabr oyidan boshlab respublikamiz tijorat banklarining milliy va xorijiy valyutalardagi barcha depozitlaridan 15 foiz miqdorida majburiy zaxira ajratmasi olish joriy qilindi. Bu nisbatan yuqori stavka bo'lib tijorat banklarining kreditlash imkoniyatiga va likvidligiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Yaponiyada majburiy zaxira stavkasi 0,1 foizdan 0,125 foizgacha qilib belgilangan. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada -0,45 foizni, AQShda 3-12 foizni, Yevrohududga kiruvchi Yevropa mamlakatlarida esa, 2 foizni tashkil qiladi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida majburiy zaxira stavkalari depozitlarning muddati va so'mmasiga bog'liq ravishda tabaqalashtirilgan. Depozitning so'mmasi qanchalik katta bo'lib muddati qanchalik qisqa bo'lsa, majburiy zaxira stavkasi shunchalik yuqori belgilanadi. Natijada muddatli va jamqarma depozitlariga nisbatan past stavkalar qo'llaniladi.

- Bank kreditlari uchun yuqori likvidli garov ob'ektlarining yetishmasligi:

Xalqaro bank amaliyotida birinchi toifali garov ob'ektlari hisoblangan ob'ektlarni respublikamiz amaliyotida yetishmasligi seziladi. Masalan, yer birinchi toifali garov ob'ekti hisoblanadi. Lekin respublikamizda yerga nisbatan xususiy mulkchilik munosabatlari to'liq qaror topmaganligi munosabati bilan undan garov sifatida foydalanib bo'lmaydi.

Birinchi toifali garov ob'ektlaridan yana biri hukumatning qimmatli qog'ozlari hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek respublikamizda hukumatning faqat bir turdagi qimmatli qog'ozlari mavjud bo'lib, ularning emissiya hajmi juda kichik.

Birinchi toifali garov ob'ektlaridan keyingisi hukumat tomonidan to'lovi kafolatlangan korporativ qimmatli qog'ozlardir. Respublikamizda hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog'ozlarning biron-bir turi mavjud emas.

Demak, respublikamiz bank va xo'jalik amaliyotida yuqori likvidli va ishonchli garov ob'ektlarining yetishmaslik muammosi mavjud. Bu esa, o'z navbatida, banklarning kredit operatsiyalari ko'lamini oshirishga to'sqinlik qiladi.

XULOSA

Jahonning ko'plab mamlakatlarini qamrab olgan moliyaviy inqiroz ko'lamini kengayotganiga qaramay, O'zbekiston bank tizimi ishonchliligi va barqaror rivojlanayotgani, xorijiy moliyalashtirish manbalariga qaramligi yo'qligi va tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta'siriga berilmaslik xususiyatlari bilan ajralib turdi. Ayni vaqtda, respublikamizda tijorat banklarining kreditlash faoliyatini amalga oshirishda garov mexanizmini boshqarishda ba'zi bir muammolar mavjud.

Banklar tomonidan kreditlash faoliyatini amalga oshirishda garov sifatida sug'urta polislaridan foydalanish masalalari to'la yoritilmagan.

Zamonaviy iqtisodiy muhit tijorat banklari faoliyatida mavjud muammolarning oldini olib, mamlakatimizda bank ishining samaradorligini oshirish asosida, xalqaro bank amaliyotiga mos keluvchi bank tizimini yaratishni taqozo qiladi. Mustaqil Respublikamizda banklar faoliyatini jahon amaliyotida qabul qilingan umumiy tamoyillarga moslashtira borishga katta e'tibor berilmoqda. Oxirgi yillarda O'zbekistonda bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha Prezident Farmonlari, Vazirlar Maqkamasining qarorlari va qator boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Bugungi kunda, O'zbekistonda har tomonlama mustahkam

bank tizimi, xalkaro andozalarga mos keluvchi bank nazorati va banklar faoliyatini tartibga solish mexanizmi mavjud.

Banklar endilikda o'z aktivlarini bankka o'z pulini ishonib topshirgan mijozlar uchun foyda keltiradigan tarzda ishlatishi kerak. Shuningdek u mablag'larini samarali ishlatishga tayyor mijozlarni kredit uchun faol jalb etuvchi tizilma bo'lishi kerak. Aynan ushbu oddiy vazifani bajarish, banklarni iqtisodiyotda ishlab chiqarishning o'sishini rag'batlantirish, iqtisodiy tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish, ularning samaradorligi va raqobat darajasini oshirishga qodir bo'lgan asosiy vositachiga aylantiradi.

Bu vazifalarni tijorat banklari bajarishlari uchun o'z aktivlarini oqilona joylashtirishlari zarur bo'ladi. Bankning aktivlarini joylashtirishda bir necha ichki va tashqi omillar ta'sir qiladi. Tashqi omillar bu xalqaro va mamlakatdagi umumiy iqtisodiy va ijtimoiy holat bilan bog'liq bo'lgan omillar bo'lsa, ichki omillar bu bevosita bankka ta'luqli ya'ni bank aktivlarini boshqarish bilan bog'liq omillardir. Shudan kelib chiqib, aytish mumkinki bank aktivlarini sifat jihatdan tahlil qilish juda dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimining samaradorligini oshirish banklarning iqtisodiyotning real sektorini kreditlashdagi faol ishtiroki bilan bog'liqdir. Mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash faoliyatini olib borishda qator muammolarga duch kelmoqda. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida tijorat banklari kreditlari tarkibida muammoli kreditlar salmoqli o'rin tutadi.

Umuman bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- Mamlakatimiz bank tizimida yirik tijorat banklarining resurs bazasi nisbatan zaif bu holat ularning depozit bazasining umumiy hajmida talab qilinguncha qadar bo'lgan depozitlar salmoqining yuqori ekanligida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur holat tijorat banklarining kredit portfelining sifat darajasiga salbiy ta'sir qiladi va banklarning kreditlash hajmini oshirishga jiddiy to'sqinlik qiladi.

- Muammoli kreditlar kredit risklarini to'g'ri boshqara olmaslikning oqibati ekanligidir.

- Kreditlar qaytmasligining sabablari qarzdor-mijoz va bank faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Mazkur sabablardan biri kreditlarning berilishi, amal qilishi davrida ichki va tashqi nazoratning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi hisoblanadi.

- Muammoli kreditlarni bartaraf etish bo'yicha jahon mamlakatlarining boy tajribasini o'rganish o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun foydalidir

- Milliy valyuta devalvatsiyasi bilan muammoli kreditlar hajmini o'zgarishi o'rtasida korrelyatsion bog'liqlikni mavjudligi, ya'ni AQSH dollarining so'mdagi rasmiy kursining ortib borishi, muammoli kreditlar ulushining o'sishiga bevosita ta'sir etadi.

- Moliyaviy oqimlar barqarorligi, o'z mablag'lari va barqaror passivlar bilan ta'minlanganlik, ta'minotning likvidligi, ta'minotning yetarliligi kabi qo'shimcha ko'rsatkichlarning kreditga layoqatlilikni aniqlash tizimiga kiritilishi kredit risklarini baholash tizimini takomillashtirish imkonini beradi.

Iqtisodiy va huquqiy soha mutaxassislari hamda tadqiqotchilari fikrlarini umumlashtirib tijorat banklarini ta'minot masalalari hamda garov munosabatlarida hali yechilmagan muammolarning mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish maqsadida, quyidagi takliflarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'lardi:

Birinchidan, mijozlarni kreditlashda kredit ta'minotining ikkilamchi manbalariga emas, balki birlamchi manbalarga e'tibor qaratish lozim. Chunki bank mijozining pul oqimlari va daromadlarini tahlil qilib, birlamchi manba hisobga olinsa, u holda kredit riski darajasini pasaytiradi;

Ikkinchidan, mol-mulk garovi asosida kreditlashda mijozlarning moliyaviy holatini baholash tizimini takomillashtirish, ular faoliyatini chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir;

Uchinchidan, uzoq muddatli kreditlarda garov ta'minotini foydalanish muddatini va kelgusida qiymatini saqlash xususiyatini e'tiborga olgan holda

kreditlar ajratish. Ayniqsa texnologiyaning yangilanishi oldingi texnologiyalarni bozordan chiqarib, ularning narxini pasaytirib yuboradi;

To'rtinchidan, kredit faoliyatida mol-mulk garovining o'rniga boshqa ta'minot turlarini yanada rivojlantirishga e'tibor qaratish darkor.

O'ylaymanki, ushbu takliflarning amaliyotda banklar tomonidan e'tiborga olinishi, o'z navbatida tijorat banklarining garov munosabatlari bilan bog'liq muammolarinihal qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2010 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. - T.; 2008 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonuni. 21 dekabr 1995 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 25 aprel 1996 yil.
5. O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi qonuni 30 avgust 2003 yil. №530-II.
6. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. 5 aprel 2002 yil №360-II.
7. O'zbekiston Respublikasining "Garov reestri to'g'risida"gi qonuni. 2013 yil 23 oktyabr, O'Rq-356-son.

8. O'zbekiston Respublikasining “Garov to'g'risida”gi qonuni. 1 may 1998 yil №:614-I.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Xalq bankining kapitallashuv darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Pq-775-sonli qarori. 11 yanvar 2008 yil.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4057-sonli Farmoni. 28 noyabr 2008 yil.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloq qilish va barqarorligini oshirish qamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi Pq-1438-sonli qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4720-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Pq-2344-sonli qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4725-sonli Farmoni.
15. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. - Toshkent: “O'zbekiston”, 2005.
16. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent: “O'zbekiston”, 2009.
17. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish - taraqqiyotimizning muhim omilidir. - T.: “O'zbekiston”, 2010. -5-32 b.

18. Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir". - Toshkent: "O'zbekiston", 2010.
19. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. - T.: "O'zbekiston", 2011. 48 b.
20. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yo'l bo'ladi. - T.: "O'zbekiston", 2012. -36 b.
21. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. - Toshkent: "O'zbekiston", 2013. -64 b.
22. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish - ustuvor vazifamizdir. - Toshkent: "O'zbekiston", 2015. -69 b.
23. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish - ustuvor vazifamizdir. - Toshkent: "O'zbekiston", 2015. -69 b.
24. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar. - Toshkent, Moliya instituti, 2000 yil.
25. Abdullaeva SH.Z. Bank ishi. Darslik. - Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2010 yil.
26. Abdullaev YO., Qoraliev T., Toshmurodov SH., Abdullaeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma -T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010-yil, -532 bet.
27. Бабаев Б.Б. Вопросы формирования ресурсов коммерческих банков и их эффективное использование. Автореферат дис. на соиск. уч. ст. канд. экон. наук. – Ташкент, 2002.
28. Бобақулов Т., Юсупов А. Обеспечение достаточности капитала коммерческих банков. Рынок, деньги и кредит. Т.: 2004. –№ 10.
29. Батракова Л.Г. Экономический анализ деятельности коммерческого банка, 2005 г.

30. Белоглазова Г.Н., Кроливецкая Л.П. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка: учебник. – М: Издательство Юрайт, ИД Юрайт, 2010. – 422с.
31. Банковское дело: Учебник для вузов. 2-е изд. / Под ред. Г. Белоглазовой, Л. Кроливецкой. – СПб.: Питер, 2010. – 400с.
32. Банковское дело: управление в современном банке: учебное пособие /Р.Г.Ольхова. – 2-е изд., перераб. и доп. – М: КНОРУС, 2009. – 304с.
33. Банковская дело. Под редакции О.И. Лаврушина М.Фин. и статистика. 2009 г.
34. Полфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дело. Перевод с англ. Москва инфра 1996 г.
35. Крис Дж.Барлтроп, Диана МакНотон. Банковские учреждения в развивающихся странах. ИЭР МБРР-Вашингтон Д.С., 1993.
36. Э.Рид, Р.Коттнр, Э.Пилл ва Р.Смит «Коммерческие банки» перевод с англ. М. Космополис 1991 г.
37. Муллажонов Ф. Банковская система – локомотив экономических реформ. Рынок, деньги и кредит. –Т.: 2004. –№ 7-8.
38. Мурычев А.В. О путях укрепления ресурсной базы российских коммерческих банков. Деньги и кредит. – Москва, 2003.39. Tijorat banklarining yillik yiqma qisobotlari. Bank ahborotnomasi gazetasi. 2008-2014 уу.
40. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Toshkent - 2013. 344 b.
41. 41. Ковалев М.М., Осмоловский А.Д. Оптимальная структура портфеля банка. Сборник научных статей под общ.с.-12, 2003., economy.bsu.by.
42. O'zbekiston banklarining 2015 yil yakuni bo'yicha analitik tahlili. “Axborot reyting” reyting agentligi. Fevral, 2015 yil.
43. Internet saytlari:
<http://www.cbu.uz> <<http://www.cbu.uz>> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti.

[http: www.bank.uz](http://www.bank.uz) <<http://www.bank.uz>> O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari sayti.

[http: www.uzreport.uz](http://www.uzreport.uz) <<http://www.uzreport.uz>> Uzreport axborot agentligi sayti.

[http: www.cbr.ru](http://www.cbr.ru) <<http://www.cbr.ru>> Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki sayti.

[http: www.lib.ru](http://www.lib.ru) <<http://www.lib.ru>> Moshkov Maksim kutubxonasining sayti (Rossiya).

[http: www.xs.uz](http://www.xs.uz) <<http://www.xs.uz>> Xalq so'zi gazetasining rasmiy sayti.

[http: www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) <<http://www.ziyonet.uz>> Ziyonet ta'lim portali sayti.

[http: www.stat.uz](http://www.stat.uz) <<http://www.stat.uz>> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi sayti.

[http: www.psb.uz](http://www.psb.uz) <<http://www.psb.uz>> ATIB "Ipoteka bank" rasmiy sayti.

[http: www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz) <<http://www.sqb.uz>> ATB "Uzsanoatqurilishbank" rasmiy sayti.